**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo’l yozma huquqida

UDK 370.70

**KARIMOVA BIBIXOL XAYRULLAYEVNA**

# MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G’URURNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

(*Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 12-sonli Mehribonlik uyi misolida*)

5A110901 “Pedagogika”mutaxassisligi bo’yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
Pedagogika fanlari doktori professor
M.E.Haydarov

Termiz – 2013

MUNDARIJA


KIRISH................................................ 3-14

| | | |
|---|---|---|
| I BOB | MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G'URURNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI | |
| 1. | Davlat dasturlari va qarorlarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga mehr muruvvat ko'rsatish va ijtimoiy himoya to'g'risida .......................................................................... | 14-18 |
| 2. | Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari......................................... | 18-30 |
| 3. | Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashning mavjud shart-sharoitlari ...................... | 30-41 |
| | I bob bo'yicha qisqacha xulosa.................................................. | 42-43 |
| II BOB | MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G'URUR HISSINI TARBIYALASHNING SHAKL VA USULLARI | |
| 1. | Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashda o'quv fanlarining o'rni | 43-49 |
| 2. | Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashda pedagogik mahoratning ahamiyati ............................. | 49-54 |
| 3 | Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'urur hissini tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlarning o'rni………… | 54-64 |
| | II bob bo'yicha qisqacha xulosa............................................... | 65-66 |
| III BOB | MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G'URURNI TARBIYALASHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINING SAMARADORLIGI | 66-80 |
| | UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.................................... | 80-82 |
| | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.................. | 83-91 |
| | ILOVALAR.......................................................................... | 92-100 |

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi:**Mustaqillik yillarida fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.Mazkur sohani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi esa jamiyatda bozor ishlab chiqarishiga asoslangan ijtimoiy qaror topayotgan va ijtimoiy munosabatlar mazmunida raqobat yetakchi o'rin egallayotgan mavjud sharoitda fuqarolarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratdi. Aholini ijtimoiy himoyalash davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarida ham alohida urg'u beriladi.

Hukumat va Prezident ko'radigan asosiy himoya choralari,eng avvalo,nogironlar,yetim-yesirlar,qariyalar,ko'p farzandli onalar,talabalar va maktab o'quvchilari manfaatlariga xizmat qiladi. 1( 14 .419)

Bu dono hikmatli so'zlar ma'no mazmuni yetim-yesirlarni har tomonlama himoya qilish,ularga mehr-muruvvat ko'rsatish,milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim-tarbiya berish kabi muhim masalalar bilan bevosita bog'liqdir. Yetim-yesirlarga g'amxo'rlik deganda, birinchi navbatda,Mehribonlik uylarini qo'llab-quvvatlash nazarda tutilgan.Boquvchisidan mahrum bo'lgan yetimlarga g'amxo'rlik qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida maxsus Qonun bilan kafolatlanib qo'yilgan. Shuningdek,"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham boquvchisidan ayrilgan bolalarni himoya qilishga alohida e'tibor berilgan.

Milliy g'urur- shaxs, ijtimoiy guruhning muayyan millatga mansubligidan faxrlanish hissi. Bu tuyg'u o'zini- o'zi anglash shakllaridan biri bo'lib, ajdodlar qoldirgan moddiy, ma'naviy meros, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, qadr-qimmati, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalaydi.

Shunday ekan xalqimiz ana shunday faxrga boy xalqdir.

---

1.Karimov I.A "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T: "O'zbekiston"-2012 439 bet.

U shaxs va ijtimoiy guruh xulq- atvorini muayyan tarzda yo'naltiradi, tartibga soladi. Milliy g'urur haqida yurtboshimiz asarlarida ham keltirilgan.Jumladan, g'ururi bor odamning qaddi rost,boshi baland bo'ladi.Oldimizda turgan ulkan,juda og'ir vazifalarni bajarish,muammolarni yechish,katta sinovlardan o'tish bularning hammasi xalqimizning ruhini, milliy g'ururini tiklash bilan bog'liqdir". 2 (   14  .325)

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning puxta asoslangan mexanizmini yaratish,keng jamoatchilik e'tiborini mazkur masalaga tortish, bu borada samarali sanalgan omillarni aniqlash,yangi imkoniyatlarni izlab topish muammolarini hal etishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.Tarbiyalanuvchilarni jamiyatning yetuk a'zosi sifatida ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash,ular tomonidan muayyan kasb yoki hunar sirlarini o'zlashtirilishiga erishish,keskin raqobatlarga bardosh bera oladigan darajada ruhan kamol topishlari uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish,mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish chora tadbirlarini belgilash tadqiqot muammosi sifatida tanlangan.Mehribonlik uylarida ta'lim-tarbya ishlarini tashkil qilish va olib borishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish,shakl va metodlarini ishlab chiqish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masaladir.Biroq,Mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilarida milliy iftixor va milliy g'ururni tarkib toptirish,shakllantirish takomillashtirish va tarbiyalashga bag'ishlangan ilmiy kuzatish ishlari yetarlicha emas. Zero,milliy g'ururni yuksaltirish orqali vatanga,xalqqa,kelajagi buyuk davlat istiqboliga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish va tarbiyalash mumkin.Yurtboshimiz aytganidek, biz pedagoglar "Bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltiramiz va bu maqsad va vazifani sadoqatli bo'lgan barcha xalqlar bilan birgalikka intilib hamkorlikda hal qilamiz".

2.Karimov I.A "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T: "O'zbeiston"-2012  440 bet.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asosida tarkib toptirish va tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir.3 ( 23 . 5)

Bularning har biri maxsus Qonun bilan kafolatlangan.Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ilgari surgan kuchli ijtimoiy siyosat tantanasidir.Mehribonlik uylariga qilinayotgan g'amxo'rlik esa shu kuchli ijtimoiy siyosatning amalda tadbiq etilishidir. Bu siyosat o'z navbatida Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning Vatandan va hukumatdan faxrlanish tuyg'ularining takomillashuviga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ham komil inson sifatida shakllantirish muqarrardir. Bunda albatta sharq mutafakkirlarining yozgan nodir asarlariga tayanamiz Jumladan, Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdurahmon Jomiyning "Bahariston", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub", Xusayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muxsiniy" Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kabi noyob asarlarni misol qilib olish mumkin.

"Ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko'rish mumkin. Bu avvalo insonning inson bilan, qo'shnining qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga sahovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi ".[4] ( 13. 8,9)

Chunki bu kabi hislatlar o'zbek xalqining eng yaxshi fazilatlaridan biri hisoblanadi.Bu yaxshi fazilatlar ajdodlarimizdan avlodlarga o'tib kelmoqda.

---

3. Asqarova O'..M "Mehribonlik uylari o'smirlarida milliy g'ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari". Avtoreferat.Toshkent:2001. 22 bet.

4. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch"T: "Ma'naviyat" 2008.173 bet.

Mustaqillik yillarida Mehribonlik uylari faoliyatini yaxshilash maqsadida Prezidentimiz farmonlari, O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Ular asosida "Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizom" qabul qilindi.Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 18-fevralda 59-sonli qarori aynan "Mehribonlik uyi" to'g'risida qabul qilinib, u o'zining amaldagi ijrosini ta'minladi. Ushbu tarixiy qaror har tomonlama muhim ahamiyat kasb etdi.Ayniqsa bu qaror o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy qadriyatlarimizni, an'analarimizni o'zida namoyon etib, ajdodlarimiz merosiga asoslanadi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga har tomonlama yordam bera oladi. Vazirlar Mahkamasining ushbu qarorini amaldagi ijrosini ta'minlash maqsadida "Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizom" qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 17-oktabrdagi "Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida "gi 230-sonli qarori ijro uchun qabul qilindi.

Hatto "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning 22-moddasida ham boquvchisini yo'qotgan bolalar haqida shunday deyilgan. "Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi"[5]. (26 .26)
Yana shuni alohida aytish lozimki istiqlolning dastlabki yillarida Prezident Islom Karimov rahbarligida islohatlar strategiyasi ishlab chiqildi.[6] [ 56 . 36]

**Tadqiqot ob'ekti :** Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shakllantirish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shakllantirish va ularni shu ruhda tarbiyalash hamda mustahkamlash bosqichlari

---

5. " Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori".T: "Sharq nashriyoti" – 1998 63 bet

6. "Milliy istiqlol g'oyasi" T: "O'zbekiston"2001 77 bet.

**Ishning maqsadi:** Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asosida tarbiyalashning shakllari,samarali yo'llarini va usullarini ishlab chiqish va ularni ilmiy nazariy asoslash.

**Tadqiqot vazifalari:** Magistrlik dissertasiyasi maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutildi.

- Olib chiqilayotgan mavzuni nazariy jihatdan o'rganish;
- Muammoni amalga tadbiq etish yo'llarini ochib berish;
- Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g'urur hissini tarbiyalashda o'quv fanlarining o'rni katta ekanini pedagogik texnologiyalar asosida ochib berish;
- Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishning ahamiyat kasb etishini "Innovasion"tadbirlar asosida joriy etish;
- Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashda tajriba – sinov ishlarini tadbiq etishda samarali yo'llarni ishlab chiqish va ularni natijasini aniqlash;

**Tadqiqotning ilmiy farazi:** Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalash samara beradi. Agar:

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalash qulay pedagogik shart-sharoitlar va vositalar yordamida amalga oshirilsa;
2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanib, tarbiyalash jarayoni tizimli, dastur va reja asosida tashkil etilsa;
3. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashning shakl, uslub, usullari amaliyotga, sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda, oila hamda jamoatchilik tashkilotlari hamkorligida ta'minlansa;

4. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashga oid yuqori samaradorlikni kafolatlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa.

**Adabiyotlar tahlili:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston mustaqilllikka erishish ostonasida"nomli asarida mustaqillik yillarida yurtimizdagi olib borilgan ishlar hamda olib borilgan tub islohatlar samarasi va bugungi faravon kunimiz haqida bayon etilgan.Albatta ushbu kitob har bir sohada o'z ahamiyatiga egadir.

Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.Ushbu qo'llanmada "Ta'lim to'g'risidagi "Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"haqida bayon etilgan.Shuning uchun ham ta'lim samaradorligini oshirishda jumladan Mehribonlik uylari haqida ham berilgan.Ya'ni Mehribonlik uylariga g'amxo'rlik ko'rsatish belgilab berilgan.Shuning uchun ham ushbu qo'llanmadan dissertasiya ishimizda samarali foydalandik.

X.J.Xudoyqulovning "Odob-axloq va tarbiya durdonalari".

Taraqqiyot asosan jamiyatdagi kishilar odobi orqali amalga oshiriladi.Odob,milliy qadriyatlarimiz ko'zgusi bo'lib,unda odob va insoniy munosabatlar qadimdan Sharqda, ayniqsa Markaziy Osiyoda boy ma'naviy ruhiyatga ega ekanligini rivoyatlar orqali bilib olish mumkin.Qo'llanma kitobxonlar ommasiga,shuningdek,o'qituvchi va tarbiyachilarga mo'ljallangan bo'lib, barcha uchun foydali bo'lishi tabiiy.

Yu.Maxmudovning,"Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezoni"kitobiga to'xtalamiz. Ushbu uslubiy qo'llanmada g'urur,odob,axloq,or-nomus,uyat,ibo-hayo kabi insoniy fazilatlatni o'quvchi talabalarga singdirish shakllari,uslublari yo'llari va vositalari berilgan.Shuning uchun ham ushbu qo'llanmadan dissertasiya ishimizda keng va samarali foydalandik.

B.Ziyomuhammadovning “Pedagogik mahorat asoslari”nomli kitobidan o’rinli foydalanishga erishdik.Ushbu o’quv qo’llanma Sharq mutafakkirlarining ta’lim –tarbiya to’g’risidagi fikkrlaridan kelib chiqib yozilgan.Kitob barcha turdagi o’qituvchi va pedagoglarning mehnat faoliyatlariga hamda ota-onalarning bola tarbiyasi bilan shug’ullanishlari uchun dasturiamal vazifasini o’tashiga ishonchimiz komil.

Tohir Usmonning “ Mehribonlik uyimiz “deb nomlangan kitobi bugungi kunda Mehribonlik uylarining aynan Surxondaryo viloyatidagi 12-sonli Mehribonlik uyi haqida yozilgan.Ushbu kitob ham dissertasiya ishimizda katta ahamiyatga egadir.

O’.Asqarovaning “Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi”nomli monografiyasi Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik mohiyati, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini milliy g’urur ruhida tayyorlashning asosiy yo’nalishlari to’g’risida so’z yuritiladi.Monografiya mutaxassis-pedagoglar,mustaqil tadqiqotchilar va ijtimoiy soha xodimlari ushun mo’ljallangan.

B.Sodiqovning “Bolalikning qayg’uli qo’shig’i”nomli risolasi yetimlikning achchiq qismati haqida yozilgan.Qayg’uli kun ortidan yaxshi kun kelishiga ishonch bilan qaray olish shoirning ushbu kitobida keltirilgan.Kitob nafaqat kattalar uchun balki Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari uchun ham ahamiyatga egadir.

**Tadqiqot uslubiyati va uslublari:**

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalash murakkab jarayon ekanini taqqoslash.

Pedagogik-psixologik jarayonlarni tarbiyalanuvchilarda milliy g’ururni shakllantirishda tadbiq etish.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

- Milliy g'ururni tarbiyalash mobaynida har bir jarayonda kuzatuv ishlarini olib borish hamda natijalarini qiyoslash.

Tadqiqotda amaliy ishlarni sinab ko'rish va tahlil qilish.

Tadqiqotda olingan natijalarni qiyoslash va bir tizimga kelish.

**Ishning nazariy ahamiyati:**

Ishning nazariy ahamiyatida mavzuning nazariy holati o'rganildi.Bunda Mehribonlik uylarining o'tmishi va davlat xujjatlarida namayon bo'lishi ko'rsatib berildi.

**Ishning amaliy ahamiyati:**

Ishning amaliy ahamiyatida asosan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashga oid amaliy tajriba-sinov ishlari va samarali usullar ochib berildi.Ishning samarasi aniqlandi. **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalash dolzarb pedagogik muammo sifatida asoslandi;

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashga yo'naltirilgan materiallar mazmuni tanlandi;
2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalash texnologiyasi ishlab chiqildi;
3. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashga oid ilmiy-metodik tavsiyalar yaratildi.

**Ishning sinovdan o'tishi.** Termiz shahridagi 12-sonli Mehribonlik uyida o'tkazildi. **Tadqiqot bosqichlari** uchta bo'lib, ular quyidagilardir:

**Birinchi bosqich** (2010-2011 yillar)da tadqiqot mavzusi bo'yicha ekologik, falsafiy, pedagogik, psixologik, didaktik adabiyotlar va matbuot materiallari o'rganilib tahlil qilindi. Tadqiqot bo'yicha tajriba-sinov dasturi tuzilib, ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari o'tkazildi, mavjud holat tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtirildi.

**Ikkinchi bosqich** (2011-2012 yillar)da Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni aniqlanib, nazariy jihatdan asoslandi.

**Uchinchi – yakuniy bosqich** (2012-2013 yillar)da tajriba-sinov natijalari tahlil qilindi, nazariy jihatdan umumlashtirildi va yakunlandi. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashga yordam beruvchi nazariy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasida olingan natijalar matematik-statistik metod yordamida tahlil etildi, umumlashtirilib dissertatsiya shakliga keltirildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.**

O'smir yoshlarni bugungi kun talabi asosida tarbiyalashga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.Ularda tarbiyalash jarayonining pedagogik psixologik tomonlari ochib berilib,milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizning ta'lim – tarbiya jarayonidagi ahamiyati pedagogik yo'llar bilan ifoda etilgan.

Ularda tarbiyalash jarayonining pedagogik psixologik tomonlari ochib berilib,milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizning ta'lim – tarbiya jarayonidagi ahamiyati pedagogik yo'llar bilan ifoda etilgan. Ulardan A.Munavvarov, M Ochilov, S.Ochil, M.E.Haydarov, O.To'rayeva kabi olimlarning olib borgan ilmiy ishlari o'z samarasini bera olgan hisoblanadi.

Pedagog olim M.E.Haydarovning olib borgan ilmiy ishlarida milliylikni yuksaltirish va yoshlarimizni milliy ruhda tarbiyalashga chuqur ahamiyat berilgan. M.E.Haydarovning "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanish"nomli monografiyasi o'quvchi yoshlar ta'lim–tarbiyasiga katta hissa qo'sha oldi. Shuningdek, hammualliflikda yaratilgan risolalari o'quvchi yoshlarda mehnat tarbiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "O'quvchilarni mehnatga tayyorlashning pedagogik asoslari" nomli hamda

“Boshlang’ich sinflarda milliy o’yinchoqlar yasash” kabi risolalari fikrimiz dalili bo’la oladi. 7.(67 .438,452)

Pedagog olima O.To’rayevaning olib borgan ilmiy ishlari hayotdan muhim saboqlar bera oladi.

Tarbiyashunos olim Safo Ochil siyosiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, mafkuraviy tarbiya huquqiy tarbiya va ekologik tarbiya muammolarini bozor iqtisodiyotiga mos ravishda o’rganib,islohatlar talablar asosida ilmiy – nazariy xulosalar chiqargan konsepsion fikrlarni o’rtaga tashlagan.

M.Ochilov 32 ta ilmiy ommabop asarlar muallifi shuningdek, o’ndan ortiq pedagogik va metodik kitoblarga muharrirlik qildi. 8.( 67 . 146)

Tadqiqotchi R.Kimning tadqiqot ishlarida yetim-yesirlarga o’z oilasidagi kabi tarbiya berilishi va ana shu muhit yaratilishi asoslab berilgan.

E.To’xmurodovning nomzodlik dissertasiyasida yetim bolalarni oilaga tayyorlashning turli usullari ko’rsatib berilgan.

U.Asqarovaning olib borgan izlanishlari ham pedagogikaga katta hissa qo’sha olgan.Ammo Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalashning pedagogik asoslari 1-9 sinflar bo’yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan. Ya’ni bu xususida ilmiy kuzatishlar olib borilmagan. (Surxondaryo viloyati misolida) Shunday ekan barcha ma’lumotlarga asoslangan holda magistrlik dissertasiyasini yozish hamda magistr akadem darajasini olish uchun “Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalashning pedagogik asoslari” mavzusi olindi. (1-9 sinf tarbiyalanuvchilari misolida)

Nima bo’lsada bugungi faravon hayotimizda tarbyalanuvchilarning boshini silaguvchi vatan bor. Mehribon yurtboshimiz bor. Ularni kiyim bosh, yashash uchun o’z uyidek sharoitlar , oziq-ovqat bilan yetarli darajada ta’minlangan.

---

7.Safo Ochil,Komiljon Hoshimov “O’zbek pedagogikasi antologiyasi” T: “O’qituvchi”1999. 478 bet.

8..Safo Ochil,Komiljon Hoshimov “O’zbek pedagogikasi antologiyasi” T: “O’qituvch i”1999. 478 bet.

**Tadqiqot metodlari:** Xujjatlarni o’rganish, pedagogik tahlil, tarixiy taqqoslash, emperik metod, test so’rovlari, suhbat, umumlashtirish, muvofiqlashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik statistika.

**Tadqiqotning metodologik asoslari.** O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta’lim to’g’risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», dialiktikaning bilish haqidagi nazariyasi, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Sharq va G’arb mutafakkirlarining milliy g’ururni shakllantirishga oid qarashlari, umumiy o’rta ta’limning Davlat talim standarti, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov asarlarida Mehribonlik uylari va ularga g’amxo’rliklar haqidagi qarashlar, davlatimizning Mehribonlik uylari to’g’risidagi qonunlari va ularni o’rganish, tarbiyalanuvchilarga va yetimlarga g’amxo’rlik qilish va ijtimoiy himoyalash, Mehribonlik uylari to’g’risidagi ilmiy va badiiy adabiyotlarni o’rganish,ularni tahlil qilish shuningdek, pedagogik – psixologik adabiyotlardan foydalanish.

**Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:**

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalash dolzarb pedagogik muammo ekanligi;
2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalash mazmuni, shakl, vosita, metodlari;
3. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalash va ularning samaradorlik darajasi;
4. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari;
5. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalashga yo’naltirilgan metodik tavsiyalar.

**Natijalarning e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mazmuni va tadqiqot natijalari yuzasidan 10 ta ilmiy-uslubiy maqolalar chop etdi.2 ta maqola OAK

ro’yxatidagi ilmiy-uslubiy jurnalda hamda dissertatsiya  mavzusiga oid uslubiy qo’llanma chop etdi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:** dissertatsiyaning asosiy matni 80 sahifadan iborat bo'lib, kirish, 3 bob, har bob bo'yicha qisqa xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar,24ta jadval, 9ta rasm, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat.Umumiy 100 betni tashkil etadi.

## MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G'URURNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

### 1. Davlat dasturlari va qarorlarida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga mehr muruvvat ko'rsatish va ijtimoiy himoya to'g'risida

Yetimlik ilohiy bir qismat shuning uchun ham inson peshonasida yozilganini ko'rishi taqdiri azaldir. Darhaqiqat, taqdir qismatidan qochib qutilib bo'lmaydi. Ana shunday qismat norasida go'dakni "Mehribonlik uyi"ga yetaklab keladi. Mehribonlik uylari sobiq sho'rolar davrida yetim xonalar nomi bilan paydo bo'lgan. Bu davrda minglab oilalarning xonavayron bo'lishi oqibatida yetim va qarovchisiz qolgan bolalarni boqish va ularni jamiyatga sodiq farzand etib tayyorlash maqsadida tashkil etilgan edi. Bugungi kunda esa Mehribon, xalqsevar, yurtboshimiz I.A.Karimov ularni o'z bag'riga olishi natijasida "Mehribonlik uylari" nomi bilan yuritilmoqda. Alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan buyon Mehribonlik uylariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida quyidagilar qayd etilgan: Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish,tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi. 9. ( 1 .13)

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi hamda Mehribonlik uylari davlat tomonidan quyidagicha ta'minlanadi:

---

9.O'zbekiston Resrublikasining konstitutsiyasi. T: "O'zbekiston" 2008.40 bet.

1. Ma’nan va ruhan qo’llab quvvatlanadi

2. Ta’lim–tarbiya jarayoni alohida e’tiborga olinadi

3. Ijtimoiy–iqtisodiy jihatdan moddiy tomondan to’liq ta’minlanadi.

4. Tarbiyalanuvchilarning sog’ligiga alohida e’tibor beriladi va tibbiy shart-sharoitlar yaratiladi.

5. Tarbiyalanuvchilarning barcha shart – sharoitlariga alohida e’tibor beriladi.

6. Ma’naviy-ma’rifiy tomonlariga zamin yaratiladi.

7. Tarbiyalanuvchilar o’qish faoliyati bilan shug’ullanishi va bo’sh paytlarini mazmunli o’tkazishlari uchun barcha sharoitlar yaratiladi.Ushbu fikrlar shuni ma’lum qiladiki, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini doimo boshini silashga mehribon qo’llar borligini hamda vatanimiz,mehribon yurtboshimiz ularga g’amxo’r ekanligidan dalolat beradi.

Shu o’rinda Ta’lim to’g’risidagi Qonunning 22-moddasini keltirmoqchimiz. Yetim bolalarni va ota–onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o’qitish va ularni boqish davlatning to’la ta’minoti asosida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. 10. ( 26 .26) Shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarning huquqlari qonunda ko’rsatilgan tegishli huquqlari asosida himoya qilinadi.Bizga ma’lumki, Mehribonlik uylariga mustaqil yuridik shaxs maqomi berilgan. Boshqa davlat tashkilotlariga mustaqil ish olib borishda qanday huquqlar berilgan bo’lsa, Mehribonlik uylariga ham ana shunday maqom berilgan. Mehribonlik uylari ham mustaqil ravishda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ish yurita oladi. Ishonch bilan shuni ayta olish mumkinki, O’zbekiston respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon juda ko’p samarali ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida Mehribonlik uylariga yanada yaqindan yondashish maqsadida qarorlar qabul qilinib,ular amalda o’z ijrosini topdi.

---

10.Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori.T: “Sharq nashriyoti”1998. 63 bet.

Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 18-fevralda 59-sonli qarori aynan “Mehribonlik uyi” to’g’risida qabul qilinib,u o’zining amaldagi ijrosini ta’minladi. Ushbu tarixiy qaror har tomonlama muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bu qaror o’zbek xalqiga xos bo’lgan milliy qadriyatlarimizni, an’analarimizni o’zida namoyon etib,ajdodlarimiz merosiga asoslanadi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga har tomonlama yordam bera oladi va ahamiyat kasb eta oladi. Vazirlar Mahkamasining ushbu qarorining amaldagi ijrosini ta’minlash maqsadida “Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizom” qabul qilindi. Ushbu nizom yetti qismdan iboratdir, ya’ni ular quyidagilar:

- Umumiy qoidalar
- O’quv - tarbiya jarayoni tuzilmasi va uni tashkil qilish.
- Tarbiyalanuvchilar.
- Kadrlar.
- Mehribonlik uyini boshqarish.
- Moliyaviy-xo’jalik faoliyati.
- Xalqaro hamkorlikda qatnashish.11. ( 3.Ma’rifat gazetasi)

2007-yilni “Ijtimoiy himoya yili” deb e’lon qilinganligi munosabati bilan hamda aholini ijtimoiy himoya qilish ko’lamlarini yanada kengaytirish va kuchaytirish, aholining muhtoj oialalari va oilalarga, nogironlar va yolg’iz keksalarga aniq, tabaqalashtirilgan tarzda yordam ko’rsatish samaradorligini oshirish,aholi daromadlari darajasidagi farqlarni keskin oshishiga yo’l qo’ymaslik, jamiyatda hamjihatlik, ezgulik va mehr-shafqat muhitini qaror toptirish bo’yicha aniq maqsadga yo’naltirilgan chora tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida: “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturi tasdiqlandi.Bu ham bugungi kunda davlatimizning g’amxo’rligi namunasidir. Dasturning mohiyatiga e’tibor qaratamiz.Ushbu dasturda Mehribonlik uylari haqida shunday ko’rsatilgan.

---

11.Vazirlar Mahkamasining !995yil 18-fevraldagi 59-sonli Qaroriga 3-ilova “Mehribonlik uyi to’g’risida Nizom”, “Ma’rifat gazetasi,1995 yil 29-mart.”

“Mehribonlik uylari”va ixtisoslashtirilgan maktab–internatlarining moddiy- texnika bazasini,boquvchisidan mahrum bo’lgan bolalar to’g’risida e’tibor va g’amxo’rlikni kuchaytirish, “Sen yolg’iz emassan”maqsadli vazifasini hayotga aniq tadbiq etishdan iboratdir. 12.( 12 .99)

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 17 oktabrdagi “Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 230-sonli qarori to’g’risida **(*1-ilovada*)**

Yuqorida “Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizom”ning tub mohiyatiga to’xtaladigan bo’lsak unda Mehribonlik uylariga bugungi kunda davlatimiz va yurtboshimizning g’amxo’rligi hamda ularning tarbiyasi va ta’limiga e’tibor va takomillashtirish yo’llari aytib o’tilgan. Bularning barchasi Mustaqillik mevasidir. Ushbu yillarda olib borilgan kuchli ijtimoiy siyosatning belgisi hisoblanadi.Islohatlarning ikkinchi bosqichida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yuqori darajaga ko’tarildi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni shakllanishida olib borilayotgan islohatlarni amaldagi ijrosi ham ta’minlanib borilmoqda.Bularning barchasi Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni shakllanishida yordam beradi.Bugungi kunda Mehribonlik uylarida faoliyat ko’rsatayotgan har bir xodim albatta bularga yaqindan yondasha olmog’i lozim.Shuningdek,o’z oldiga qo’yilgan maqsad va vazifalarni bajarishda to’g’ri yondasha olib,tarbiyalanuvchilarning yaqin o’rtog’iga aylanishi shart.Bu borada albatta ulardan samimiylik va o’z kasbiga faollikni talab etadi.Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni shakllanishida o’zaro bog’liqlikda bir necha tizim muhim ahamiyat kasb etadi.Ushbu tizimlarning birortasini Mehribonlik uyi faoliyatidan ajratib bo’lmaydi.Ularni o’z o’rnida alohida faoliyati mavjud.Ushbu tizimni quyidagi jadvalda keltiramiz.

---

12.Karimov I.A “Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish- barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadidir” T: “O’zbekiston”2007. 102 bet.

*1-jadval*




Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shakllantirish va tarbiyalash asosiy masalalardan biridir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu masalalar bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

## 2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikdan keyin hukumatning barcha ichki va tashqi siyosati, islohatlarning birinchi bosqichida olib borgan olamshumul siyosati va ikkinchi bosqichda amalga oshirayotgan tarixiy-umumbashariy ishlari tufayli butun dunyoga tanildi va tan olindi. Bu o'zbek xalqining milliy g'ururidir.

Ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi.Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik,milliy iftixor,butun dunyo uchun bag'rikenglik tomon keskin o'zgartirib yubordi. 13. (8 .142)

**Milliy g'urur** haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo g'urur nima? so'ngra milliy g'urur mazmuni qanday? degan savollarga to'xtalish zarur. Chunki, milliy g'ururni tarkib toptirish va tarbiyalash kabi pedagogik – psixologik muammoni hal qilish zikr qilingan so'z va so'z birikmalari ma'nosi bilan bevosita bog'liqdir.

**G'urur** so'zi faxr, iftihor, faxrlanish, mag'rur, quvonch, quvonish kabi ma'nolarni anglatadi. Mumtoz she'riyat va nasrlarda, faxriya, ballada va dostonlarda, xalq og'zaki ijodida ham yuqoridagi so'zlar ma'nodosh (sinonim) ma'no - mazmunda foydalanilgan.

**Milliy g'urur** muayyan millatning tarixiy o'tmishidan, milliy qadriyatlaridan, jahon miqyosida asrlar osha tan olinib kelinayotgan fan, din, adabiyot, san'at va madaniyat yutuqlari va ularni yaratgan daholardan, tarixiy obida va yodgorliklaridan, milliy urf-odatlari-yu, an'analaridan, ona-vatanidan, dono xalqidan,Vatanining go'zal o'tmishi va bugunidan, milliy xalq qahramonlaridan faxrlanish va iftixor qilish tuyg'usidir.
Bu tuyg'uni albatta shakllantirib borish lozim.

---

13.Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida,Xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartlqari va taraqqiyot kafolatlari. T: "O'zbekiston"1997. 326 bet.

**G’urur** o’zini o’zi anglash, milliy g’urur esa milliy o’z-o’zini anglash bilan bevosita bog’liqdir.

Tilini, dinini, tarixini, ajodlarining mazmunli hayotini, olamshumul kashfiyotlarini yaxshi bilgan, o’rgangan kishigina, o’zining kimligini anglash mumkin va uning qalbida, vujudida va ruhida faxrlanish tuyg’usi vujudga keladi. Shuningdek, unda ajdodlariga sodiq qolib, o’zini kamol toptirishga bo’lgan intilish insonning g’ururini, uning haqiqiy fazilatlarini yuksaltiradi.

Mehribonlik uyiga qabul qilingan bolalar qismati nega shunday, degan ma’naviy - ijtimoiy muammo ko’tariladi. Zero, mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimiz qayta tiklanmoqda, insoniy qadr-qimmat qaror topayapti, mehr-muruvvat iplari mustahkam bog’lanmoqda. Bolalarning ota-onadan mahrum bo’lish taqdiri nima bilan bog’liq.

Statistik ma’lumotlarga ko’ra respublikamiz miqyosida kuniga 500 nafardan ortiq yigit-qiz oila qurishmoqda. Har soatda 70 nafardan ortiq bola tug’ulayotganligi ma’lum. Lekin oiladagi qo’ydi-chiqdilar ham oz emas.

Ayrim ota - onalarning ma’naviy - axloqiy jihatdan mas’uliyatizligi tufayli, shunday qo’ydi-chiqdilar oqibatida, shuningdek, ayrim ota-onalarning bag’ritoshligi sababli gunohsiz bolalar yetim, qarovsiz qolib, Mehribonlik uylaridan panoh topmoqdalar.

Bolalar uyidagi yetim bolalarni eslasam etim jimirlab,ko’zim yoshga to’ladi.Kunu - tun onaning ardog’ida bo’lishni kutganlar kammi?Ular orzu bilan,intizor ko’zlari bilan o’z ota-onalarini qidirishadi,kutishadi,ammo behuda...14. ( 55 .83)

Yetimlik ijtimoiy himoyadan xolidir. Zero, yetimlikdagi bolalar deyarli huquqsiz kishilar bo’lishgan. O’tmishimizda ularning huquqini muhofaza etish bilan maxsus tashkilotlar deyarli shug’ullanishmagan.“Yetim o’z ishini qilib,kishi minnatini eshitar”,

---

14.Yu.G.Maxmudov,X.J.Xudoyqulov,E.J.Xolmirzayev,Z.J.Xolmirzayev,O.J.Suyunov.“.Milliy g’urur-ma’naviy komillik mezoni”.T:“Dizayn Press”nashriyoti 2011.327 bet.

“Yetim qizga yelpig’ich ham chikora”,

“Yetimning og’asi ko’p, joniga foydasi yo’q”.

Yetimlik iqtisodiy nochorlikdir. Ijtimoiy muhofazasizlik yetimlar ahvolini qiyinlashtirgani ma’lum.

Shunga ko’ra, ularning ko’pchiligi, hatto qorin to’ydirish uchun ham talay azob –uqubatlar kechirishgan. “Yetimning bir to’ygani, chala boy bo’lgani”.

Yetimlik jamiyat e’tiborini qaratish shart bo’lgan hodisadir .

O’zbekona insoniylik, bolajonlik, shu xalqqa xos bo’lgan kuyunchaklik yetimlar manfaatini hech bo’lmasa jamoatchilik asosida himoya qilishga undab kelgan. Bir qator maqollarda ana shu ezgu ruh balqib turadi. “Yetimni yig’latma”, “Yetimni yetim dema”, “Yetimning haqini yema“, “Yetimning xaqi yetti daryoni qurutgan”, “Sag’irning haqi – tangrining o’qi”.

Yetim. Ota-onasi yoki ulardan biri o’lgan bola. Xalq orasida ota – onasi vafot qilib, yolg’iz qolgan bola “Chin yetim”, onasi bilan qolgan bola “gul yetim”, otasi bilan qolgan bola “Shum yetim”, ayrim hollarda otasi yoki onasi tomonidan tashlab ketilgan bolalarni “Tirik yetim” deb atashganlar.

Jahonda ko’pgina xalqlarda bo’lgani kabi Markaziy Osiyo xalqlarida ham bola yetim bo’lib qolsa, ularni qarindoshlari yoki hamqishloqlari, mahalladoshlari o’z qaramog’iga olib tarbiyalaganlar. U “Asrandi bola” deb atalgan.

Darhaqiqat, yetim bolalarni asrab olish, ularga homiylik qilish, o’zbek xalqining an’anasi bo’lgan. Xalqimiz shu ezgu hislatiga hamisha sodiq qolgan. Hayot hamisha ham odamga shirin kulcha tutqazavermaydi.Uning taxir,gohida achchiq luqmalarini ham tatib ko’rishga to’g’ri keladi.Bolaligimning qayg’uli qo’shig’i,bu! Voy bechora jonim,nodir bolaligim! 15. ( 68 .62)

Agar o’tmishga nazar soladigan bo’lsak,haqiqatdan ham yetimlikning qayg’uli qo’shig’iga guvoh bo’lamiz.

---

15.Sodiqov B T: “Bolaliknig qayg’uli qo’shig’i”. “Fan nashriyoti” 2006.63 bet.

**Yetim boqqan odamning fazilati**

Saxl ibn Sa'd rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Men va yetimning kafilini olgan odam ikkimiz jannatda yonma-yon yashaymiz"-deb ko'rsatgich va o'rta barmoqlarini juft qilib ko'rsatdilar". 16. ( 86 .62 bet)

Sobiq Sho'ro davlati davrida bolalar uylari, turli internatlar ochilgan. O'sha muassasalarga boquvchisidan mahrum bo'lgan bolalar qabul qilingan va tarbiyalangan.

Bundan ko'zlangan maqsad qanday edi? Bolalar uyidagi yetimlar milliy tarbiya an'analaridan butunlay uzoq bo'lgan. Ularni qaysi g'oya va mafkura asosida tarbiyalash bolalar uylari tarbiyachi-o'qituvchilariga bog'liq.

Bolalar uyidagi ta'lim–tarbiya milliylikdan tamoman uzoqlashgan.Milliy qadriyatlar va an'analar, milliy fikr va tafakkur, milliy g'urur va iftixordan butunlay uzoqlashtirilgan. Ular hatto o'zining ona tilini bilmaganlar. Bolalar uyida tarbiyalangan yetimlar to'tiqush yoxud manqurt bo'lib yetishganlar. Ikkinchi jahon urushi davrida sobiq O'zbekiston Sovet sotsialistik respublikasida bolalar uylarining soni 40 ta bo'lib, ularda 7166 nafar bola tarbiyalangan.

"O'zbekistonimga kelgan bolalarning birontasi ham boshpanasiz va onalik mehr muhabbatidan mahrum bo'lib qolmasliklari kerak".

Prezidentimiz I.A.Karimov say-harakatlari tufayli milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish bugungi kunning bosh masalasi qilib qo'yildi. Yurtboshimiz respublikamiz Oliy Majlisi sessiyasida ijodkorlar bilan uchrashuvidagi yutuqlari buning yorqin dalilidir. Ayniqsa, Vatan, vatanparvarlik, ota-ona qadr–qimmati, ajdodlar tarixi, boy madaniyati bilan mustaqil davlat kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol inson qilib voyaga yetkazishda milliy istiqlol mafkurasi har qachongidan ham zarur.Ammo bugungi kunda bolalar turli muhitda tarbiyalanmoqda.

---

16. Xudoyqulov X.J T: "Odob ahloq va tarbiya durdolari" "DT -nasr"2010. 122 bet.

Jamiyatimizdagi ayrim yoshlarning hayoti, tarbiyasi oilada, ota-ona bag'rida emas, balki Mehribonlik uylarida kechayapti.

O'tmishda ota-onasiz qolgan yetimlarni o'ziga to'q ta'minlangan yoki "tirnoqqa zor"oilalar,boy-badavlat xonadonlar "savob "uchun olib asraganlar,oyoqqa turg'izganlar.17. ( 78 .4)

Yana ham achinarlisi shundaki ,ayrim bolalarning ota-onalari tirik bo'la turib,Mehribonlik uylarida tarbiyalanmoqdalar.
Ana shunday qismat norasida go'dakni "Mehribonlik uyi" ga yetaklab keladi. Mehribonlik uylari sobiq sho'rolar davrida yetim xonalar nomi bilan paydo bo'lgan. Bu davrda minglab oilalarning xonavayron bo'lishi oqibatida yetim va qarovchisiz qolgan bolalarni boqish va ularni jamiyatga sodiq farzand etib tayyorlash maqsadida tashkil etilgan edi.

Eng avvalo tarbiyalanuvchilarga milliy g'urur haqida tushuncha berib boriladi.

Milliy g'ururni shakllantirib, vatanga muhabbatni his eta boshlaydi. Milliy g'ururni shakllantirish bu vatanga muhabbatni shakllantirish demakdir.

Buning uchun eng avvalo tarbiyalanuvchilarda bu haqida fikr va tuyg'u paydo qila olish kerak. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga g'amxo'rlik bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.Shunday ekan yurtboshimizning say harakatlarida ham ko'rish mumkin.

Bugungi kunda esa mehribon, xalqsevar, yurtboshimiz I.A.Karimov ularni o'z bag'riga olishi natijasida "Mehribonlik uylari " nomi bilan yuritilmoqda.

Mehribonlik uylariga kelib qolish holatlarni Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 12- sonli Mehribonlik uyi misolida kuzatdik. Buning natijasini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

---

17. Tohir Usmon "Mehribonlik uyimiz" T: "Cho'lpon nashriyoti"1998.126 bet.

2-jadval

| Ota-onasi norkologik hisobda | Ota-onasi bor ajralgan | Ota-onas iz yetimlar soni | Ota-onasi ruhiy kasal | Onasi bor | Yolg'iz onalar | Otasi bor | Ota-onalik huquqidan mahrum | Ota-onasi qamoqda | Ota-onasi tashlab ketgan bolalar | Oilasi kam daromadli bola soni | Ota-onasi nogiron |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra aniq ma'lumotlarning guvohi bo'ldik. Ya'ni Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 12-sonli Mehribonlik uyida bugungi kunda tarbiyalanuvchilarning Mehribonlik uyiga kelib qolish sabablari aniqlandi. Termiz shahridagi 12-sonli Mehribonlik uyida 85 nafar tarbiyalanuvchi tarbiyalanmoqda.Ular turli yoshlarni tashkil etadi. Shulardan 61 nafari o'g'il bolalar, 24 nafari esa qiz bolalarni tashkil etadi.

Bu yerda tarbiyalanuvchilar 1-9 sinflarda ta'lim-tarbiya olishadi. Ularning har birining og'ir kechinmasiga nazar soladigan bo'lsak nimadir sabab tufayli Mehribonlik uyidan panoh topishgan. Ya'ni bolalarning Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisiga aylanib qolishining sabablarini tadqiqotimiz davomida aniqladik.

Shuning uchun Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 12-Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarining Mehribonlik uyiga kelib qolish sabablarini aniqladik. Ushbu ma'lumotlarni quyidagi jadval asosida keltirdik.

3-jadval

| Mehribonlik uyi | Holatlar ko'rsatkichlari | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami bola soni | Ota-onasi norkologik hisobda | Ota-onasi bor ajralgan | Ota-onas iz yetimlar soni | Ota-onasi ruhiy kasal | Onasi bor | Yolg'iz onalar | Otasi bor | Ota-onalik huquqidan mahrum | Ota-onasi qamoqda | Ota-onasi tashlab ketgan bolalar | Oilasi kam daromadli bola soni | Ota-onasi nogiron |
| Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 12-sonli Mehribonlik uyida | 85 | 2 | 4 | 8 | 9 | 8 | 20 | 6 | 12 | 1 | 8 | 6 | 1 |

Bugungi kunda Termiz shahridagi 12- sonli Mehribonlik uyida 85 nafar o’g’il va qiz bolalar voyaga yetmoqda. Shundan 26 nafari boshlang’ich ta’lim tarbiyalanuvchilari hisoblanadi.Bizga ma’lumki, ularga davlatimiz g’amxo’rlik qiladi va barcha sharoitlarni ta’minlashda bosh-qosh bo’ladi. Ammo juda ko’p jihatdan Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining o’z uyidagi sharoit cheklangan. Shuning uchun ham ular tasavvurida ayrim fikrlar salbiy tomonga o’zgarishi mumkin. Shunday bo’lsada ular taqdiriga yozilgan og’ir qismatni ruhiyatidan chiqara olish zarur. Bu og’ir qismatlarni tarbiyalanuvchilar xotirasidan chiqarish murakkab jarayon, shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarda milliy g’ururni shakllantirish va tarbiyalash muhim masalalardan biri sanaladi. Tarbiyalanuvchilar turli qobiliyat egasi, turli to’garaklarga qatnashadi. Hatto ba’zi tarbiyalanuvchilarda kuchli sahna qobiliyati mavjud. Ayrim tarbiyalanuvchilarda esa hunarmandchililikka nisbatan qiziqishlari bor. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki tarbiyalanuvchilarning har birida qandaydir qobiliyat mavjud. Hatto ayrim tarbiyalanuvchilar to’rt-beshta qobiliyatga ega. Ammo ishning bir tomonida muammoga duch keldik. Ya’ni Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni shakllantirish va tarbiyalash. Ana shu borada Mehribonlik uyida faoliyat ko’rsatayotgan tarbiyachilarning faoliyati pastligi ya’ni ularda pedagogik mahoratning yetishmasligiga guvoh bo’ldik. Shuning uchun ham Mehribonlik uyilarida tarbiyachi xodimlar ham kuchli pedagogik mahoratga ega bo’lishi kerakligi aniqlandi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalashda vatanparvarlik g’oyalari,milliy urf-odatlarimizga hurmatda bo’lish, o’zbekning milliyligini yaxshi anglab yetishi uchun kuchli pedagogik mahoratdan foydalana olish lozimdir. Ularning natijasida Mehribonlik uyilarida milliy g’urur tarbiyasi shakllanadi va takomillashtiriladi. Mehribonlik uylarida milliy g’urur tarbiyasini shakllantirish va takomillashtirishni bir-necha mezonlar asosida olib bordik.Masalan, ular quyidagilar:

4- jadval




Tarbiyalanuvchilarda milliy g’ururni shakllantirishda yuqoridagi mezonlar muhim ahamiyatga egadir.Shuni alohida ta’kidlash lozimki tarbiyalanuvchilarga milliy g’urur tarbiyasini berish jarayonida yuqoridagi mezonlardan foydalanishda ta’sirchan usullar orqali tarbiyalanuvchilar ongiga yetkazish katta ahamiyatga ega

hisoblanadi.Ana shunday pedagogik–psixologik vazifani amalga oshirishda Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining psixologik holatini hisobga olish lozim.

O'tmishga nazar soladigan bo'lsak,yetim-yesirlarga mehr-oqibatli bo'lish o'zbek xalqiga xos bo'lgan yaxshi fazilatlardan biridir.Ajdodlarimiz merosidagi manbalardan misollar keltiramiz. ***(2 –ilovada keltirilgan)***

Yuqoridagi so'rov –savollarni Termiz shahridagi 12-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan birgalikda olib bordik. Javoblar og'zaki,yakka tartibda, suhbat usulida olindi. Olib borilgan tadqiqot ishlarimizda bizga Mehribonlik uyining psixologi va yetakchisi yordam berdi.

Tadqiqotni tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlarini inobatga olib 2ta guruh asosida olib bordik.

1-guruh

2-guruh

Ikkita guruhda birgalikda 85 nafar tarbiyalanuvchi mavjud.Olib borilgan tadqiqotlarimizdan shular ma'lum bo'ldiki,Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni anglash tadqiqotimiz boshida sayozdir yoki bu haqida fikrlari umumiydir.Masalan, birinchi guruh tarbiyalanuvchilarida bu haqidagi fikrlari sayoz va yetarli darajada emas.Ikkinchi guruh tarbiyalanuvchilarida umumiy tushuncha bor ammo takomillashtirilmagan.Shuningdek,olib borilgan muloqot va kuzatishlardan shular ma'lum bo'ldiki, tarbiyalanuvchilardagi asosiy tushkinlik holatini asosan ruhiyat tashkil qilar ekan. Ya'ni ular ruhiyatiga ta'sir qilgan narsa bu ularning oilasidan ya'ni ota-onasi bag'ridan ajralib Mehribonlik uyida tarbiya topayotganidir. Ularning orzusiga aylangan bir narsa bor. U ham bo'lsa o'z oilasi ota-onasi bag'rida yashashdir. Tarbiyalanuvchilar oiladagi sharoitni juda sog'inadi. O'zbek millatiga xos bo'lgan milliy o'zbek oilasida yashash tarbiyalanuvchilarning azaliy orzusidir.

Ammo buning iloji yo'qligini yaxshi bilsada baribir buni orzu qilaverishadi.Shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarning ruhiyatiga kira olish tarbiyachi va pedagoglarning oldidagi oliy vazifadir.Ana shu oliy vazifani bajarish yo'lida ulardan kuchli izlanish va bugungi kun darajasidagi pedagogik mahorat

kerak bo’ladi.Shuning uchun Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ongida milliy g’ururni shakllantirish va tarbiyalash lozim.Bunda nimalarga e’tibor berish kerakligini keltiramiz.

- Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining har birini ruhiy holatini yaxshi bilish va uni ko’ngliga yo’l topa olish;
- Tarbiyalanuvchilar voyaga yetish davrida ularning ruhiy holatida sodir bo’layotgan o’zgarishlarni aniqlab borish;
- Tarbiyalanuvchilarning og’ir o’tmishini yodiga solmaslik;
- Tarbiyalanuvchilarning har birini qobiliyatini, ularni ijodkorligini hamda qiziqishlarini yaqindan o’ganish;
- Tarbiyalanuvchilarni shaxsiga hurmat ko’zi bilan qarash;
- Tarbiyalanuvchilarning hatti-harakatiga, o’zaro munosabatlariga, mehnat faoliyatiga, faolligiga,ta’lim –tarbiya jarayonidagi faoliyatiga to’g’ri baho bera olish;
- Tarbiyalanuvchilarning jismoniy o’sishiga alohida e’tibor berish;
- Tarbiyalanuvchilarda milliy g’urur hissini doimiy o’rgatib borish, amal qilish darajasini ham aniqlab borish;
- Milliy g’ururni tarbiyalashda barcha shart-sharoitlarni yaratish va shu asosida milliy g’ururni tarbiyalab borish.
- Keltirilgan bu fikrlarni amalga oshishda pedagogik jarayonlar muhimdir. Ya’ni quyidagi pedagogik xususiyatlarga amal qilish muhimdir.
- O’zbek xalqiga xos bo’lgan milliy qadriyatlar;
- Vatanimiz tarixi va o’tmishi;
- Ajdodlarimiz merosi va ahamiyati;
- Adabiyotimizni va san’atimizni.
- Urf-odatlarimiz va an’analarimizni;
- Tarbiyalanuvchining burchlari va mas’uliyatlarini;
- Vataniga hurmat ko’zi bilan qaray olishni;
- Mas’uliyat va tashabbuskorlikni;
- Mehnatning inson hayotidagi o’rnini.

Tadqiqotlarimiz davomida Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan bir-nechta tadbirlar olib bordik. Masalan, “O’zbekiston vatanim mening”,“Konstitutsiya bosh qomusimiz”,“Vatanim faxrim”, “Mehmondo’stlik yaxshi odat”, “Suxandonlar tanlovi”, “Mehnat,mehnatning tagi rohat”, “Ertaklar yaxshilikka yetaklar”,“Kim bo’lsam ekan”, “Ajdodlarimiz merosini o’rganamiz”, “Odob nimadan boshlanadi”, “Milliy bayramlarimizni o’rganamiz”, “Hadislardan o’rganamiz”, “Vatan ostonadan boshlanadi” kabi mavzularda turli tadbirlar olib borildi.

Shuningdek,milliy g’ururni shakllantirishda ajdodlarimizning noyob asarlaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo’ladi.Masalan,A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan keng foydalanib vatanga muhabbatni o’stirib borish kerak.Ushbu asardan namuna keltiramiz.

Xulosalar shuni ko’rsatadiki Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni shakllantirishda vatanimizning tarixi va bugungi kuni,vatan ozodligi yo’lida jasurlik qilgan qahramonlar faoliyatini, milliy urf-odatlar,an’analarimizni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa bu borada pedagogik-psixologik vazifani amalga oshirish kerak.

Shuningdek, tarbiyalanuvchilarda milliy g’ururni shakllantirishda o’zaro qadr-qimmat,ustozlarga hurmat hissini ham o’rgatib borish kerak.Shu o’rinda A..Navoiy hikmatlaridan foydalanamiz.

Haq yo’lida kim senga bir harf o’rgatmish ranj ila,
Aylamak bo’lmas ado oning haqqin yuz ganch ila. 18. ( 27 .1)

## 3. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni shakllantirishning mavjud shart-sharoitlari

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 17-oktabrdagi “Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida ”gi 230-sonli qarori ijro uchun qabul qilindi. 19. (4 .1)

---

18. “Boshlang’ich ta’lim” T: 11 –son,2011. 32 bet.

19. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 17-oktabrdagi “Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizom

Masalan, shu asosida Mehribonlik uylarida ishlarning tashkil etilishi va tarbiyalanuvchilarni har tomonlama kamol topishida xizmat qiladi. Ya’ni bugungi kunda Mehribonlik uylariga davlatimizning g’amxo’rligi namunasidir. Ana shu asosda Mehribonlik uyida milliy g’ururni tarbiyalashdagi mavjud shart-sharoitlarni ko’rib chiqamiz. Tadqiqotimizni aynan Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 12-,,Mehribonlik uyi’’da olib bordik. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni shakllantirishning mavjud shart-sharoitlari bo’yicha ham Termiz shahridagi 12-Mehribonlik uyi misolida ko’rib chiqamiz.

Termiz shahridagi 12-Mehribonlik uyida reablitasiya ishlarini amalga oshiruvchi boshqaruv mexanizmi ishlab chiqilgan,ular quyidagilarni o’z ichiga oladi.

Pedagogik reablitasiya

Psixologik reablitasiya

Tibbiy reablitasiya

Korreksion reablitasiya

Huquqiy reablitasiya

Termiz shahridagi 12-Mehribonlik uyida bugungi kunda milliy g’ururni shakllantirishda barcha shart-sharoitlar mavjud bo’lib, tarbiyalanuvchilarni har tomonlama kamol topishida har bir xodim tinimsiz mehnat qilishmoqda.

Ushbu Mehribonlik uyida juda ko’p yetuk insonlar voyaga yetganlar. Hozirda ham bu an’ana davom etib kelmoqda. Shuning uchun Mehribonlik uyining kecha va buguniga qisqacha to’xtalmoqdamiz.

12-sonli «Mehribonlik uyi» Surxondaryo viloyati Boysun tumanida 1928 yilda tashkil topgan. O’tgan 85 yil davr ichida minglab yetim, ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalab katta xayotga chiqarishdek o’ta muhim va savobli ishni amalga oshirib kelmoqda.

Mazkur muassasa tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, tarbiyalanuvchilar orasidan bir qator akademiklar fan arboblari, yozuvchi, shoirlar, musavvirlar va “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti sovrindorlari yetishib chiqqaniga guvoh bo’lamiz.

Akademik M.Erkayev, Qozon universiteti rektori vazifasida ishlagan professor R.Nadirshin, O'zbekiston xalq rassomi Ro'zi Choriyev, jamoat arboblari A.Toshmatov, Xalq ta'limi a'lochisi S.Soxibov, yozuvchilar M.Aminov, T.Usmonov, geolog R.Abrayev, xuquqshunos U.Abdiyev, ilk o'zbek uchuvchilaridan 1-klass aviatsiya polkovnigi B.Mirzaaliyevlar, shifokor S.Bobojonov, "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti sovrindori V.Volodina dargohning sobiq tarbiyalanuvchilari bo'lgan.

Yosh avlodni ma'naviy- axloqiy,madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi davlat siyosatining muhim ustivor yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Bugungi ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifa esa axloqiy pok, jismonan baquvvat, Vatanga sadoqatli fidoiy inson, tashabbuskor sog'lom avlodni tarbiyalashdir.

Ayniqsa, ota-ona qarovisiz qolgan , mehrga muhtoj bolalar kelajagiga bo'lgan munosabat o'zgarishi natijasida tarbiyalanuvchilarning tafakkurini o'zgartirish, islohotlar mohiyatini tushuntish,ularda faol yaratuvchilik kuchi bilan ishtirok etishga, imkon yaratish hamda sifat jihatdan yangi zamonaviy tarbiyaviy talab va usullardan foydalanilgan holda faoliyat yuritish talab etilmoqda.

Shunga ko'ra Viloyat Milliy Xavfsizlik xizmati boshqarmasi tashabbusi va beminnat ko'magi asosida Surxondaryo viloyati markazi Termiz shahrida bunyod etilgan o'ta ko'rkam va zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan, barcha qulayliklarga ega muhtasham binoga Boysun tumanidagi Mehribonlik uyi Surxondaryo viloyati hokimining 14-aprel 2010 yildagi 86-sonli qaroriga binoan joriy yilning 9-avgust kuni ko'chirildi. Bugungi kunda jami 85 nafar tarbiyalanuvchi bo'lib, shundan o'g'il bolalar 61 nafar, qiz bolalar 24 nafar, bolalar ota-ona qarovisiz qolgan ishtimoiy yetim bolalar xisoblanadi.

«Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilari asosan viloyatimizning barcha tumanlaridan keltirilgan 5 millatga mansub bolalardir.

Qayta shakllanayotgan 12-sonli "Mehribonlik uyi" pedagogik jamoasi zimmasiga bugun nafaqat tarbiyalanuvchilarni zamonaviy bilimlar bilan

qurollantirish,balki mazkur muassasada tarbiyalanayotgan davrda mustaqil xayotga tayyorlash, ularni har tomonlama yetuk inson,barkamol shaxs,ijtimoiy xayotga moslashuvchan, zarur ko'nikma va malakalarga ega, kelajakka ishonch bilan qaraydigan qilib tarbiyalashga qaratilgan dastur asosida faoliyat olib borishdek vazifa yuklatiladi.

"Mehribonlik uyi" pedagogik jamoasining asosiy maqsadi ham barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda muassasani oila, uy sharoitiga yaqinlashtirish.

O'zaro munosabatlarda ota-ona va farzand, opa-singil va aka-uka sifatida muloqot olib borishlariga erishishdir.

Bu borada yangi tarbiyaviy va uslubiy izlanishlar olib borish "Har bir farzandga mehr-e'tibor" shiori doirasida tarbiyaviy tadbirlar va uslubiy yunalishlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida "gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va amaldagi me'yoriy xujjatlar asosida "Mehribonlik uyi" pedagogik jamoasi jamoatchilik bilan hamkorlikda yoshlar dunyoqarashlarini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosidan oqilona foydalangan holda, asosiy e'tiborni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik,imon-e'tiqod, mehr-shavqatlilik kabi insoniy fazilatlar hissini singdirishga , barkamol avlodni tarbiyalashga qaratmoqda.

Shunga ko'ra 12-sonli «Mehribonlik uyi» ma'muriyati tomonidan muassasa Termiz shahriga ko'chirilishi munosabati bilan pedagogik jamoani qayta tashkil etish, tarbiyalanuvchilarni yangi muhitga ko'niktirish, yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish jarayoni davrida o'ziga xos usulda ish qurish va tashkiliy – tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda mazkur muassasadagi psixologik muhitga alohida e'tibor qaratishga majbur. Chunki ushbu jarayon alohida insonparvarlikni talab etadi.

«Mehribonlik uyi» ma'muriyati ushbu vaziyatda kadrlarni tanlashda, ularni bilimi, tajribasi va saloxiyatiga alohida e'tibor qaratgan holda vazifalarni taqsimlash avvalo tarbiyalanuvchilar ehtiyoji va talabidan kelib chiqib quyidagi tartibda ish yuritmoqda.

Shuningdek, Surxondaryo viloyati hokimining 2010 yil 6-avgustdagi 166-sonli qaroriga binoan 12- son “Mehribonlik uyi” negizida umumiy o’rta ta’lim maktabi tashkil etilishi munosabati bilan yangi o’qituvchi –murabbiylarni qabul qilishda ularni asosan tanlov asosida birma-bir tegishli sinovlardan o’tkazildi.

Asosiy maqsad esa “Mehribonlik uyi”ga qadam bosgan bolaning ruhiyatini tushunish uning qayg’usiga sherik bo’lish, uning qalbiga yo’l topish, ichki hissiyotini, istak-xoxishini aniqlash unga mehr ko’rsatish, unga kelajakka ishonch bilan qarashga undash, bola o’zini erkin xavfsiz tutishi uchun imkon qadar shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Katta hayotiy tajribaga ega sabr va bardoshli pedagogik jamoasini tanlab, ular tomonidan kechayu-kunduz tinmay faoliyat olib borish, tabaqalashtirilgan ta’lim asosida maktabga olgan bilimlarni mustahkamlab borishga ko’mak berish, kasb-hunar sirlaridan bolalarni iloji boricha ko’proq bahramand etish, uy, ro’zg’or yuritish yumushlarini bekami-ko’st bajarishni o’rgatish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratishdir.

Qolaversa yaqin yillarda qo’lga kiritilgan ba’zi yutuqlarni yanada kengroq davom ettirish talab etiladi.

12-son “Mehribonlik uyi” pedagogik jamoasining va ma’muriyatining harakati bilan o’tgan 2003-2008 o’quv yillari mobaynida tarbiyalanuvchilarga yaratib bergan shart-sharoitlar, jamoatchilikni jalb etishdagi namunali ishlari hamda ta’lim –tarbiya sohasida erishgan yuqori kursatkichlari tufayli muassasa 2005 yil Respublikada “Eng yaxshi” “Mehribonlik uyi” deb tan olinib birinchi darajali diplom hamda kompyuter sinfi bilan taqdirlangan bo’lsa 2006 yilda “Eng yaxshi ish tajribasiga ega “Mehribonlik uyi” naminatsiyasini qo’lga kiritdi. 2007-2008 yillar mobaynida muassasa Respublika “Mehribonlik uy”lari orasida alohida mavqega ega ekanligini barcha yo’nalishlar bo’yicha isbotlay oldi. 2008 yil “O’zbekiston madaniyat va san’ati forumi”, jamg’armasi tomonidan tashkil etilgan ”Yangi avlod” bolalar ijodiyoti festivalida “Mehribonlik uyi” qoshidagi “Oila” folklor ansambli g’olib deb topilib Respublika bosqichida laureat bo’ldi.

2008-2011 yillari tarbiyalanuvchilarimiz Respublika “Kamalak jilosi” ko’rik

tanlovida qatnashib faxrli o’rinlarni qo’lga kiritdilar. Shuningdek, Volodina Veronika tarbiyalanuvchi “Mening huquqlarim” mavzusida o’tkazilgan Respublika insholar ko’rik tanlovida g’oliblikni qo’lga kiritishga muvofiq bo’lgan. 2010 yil eng katta yutuqlardan biri Volodina Veranika san’at yo’nalishida “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo’lgan. 2011 yil “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” da “Yuragimni bolalarga bag’ishlayman” Respublika ko’rik tanlovining “Eng yaxshi Mehribonlik uyi” yo’nalishi bo’yicha xududiy bosqichda qatnashib g’olib deb topildi va diplom bilan taqdirlandi. Respublika bosqichida esa “Estetik tarbiyalashda innovatsion ish shakllari qo’llanilgan” nominatsiya bo’yicha g’olib deb topildi.

1. “Ma’naviy-ma’rifiy markaz” uning tarkibida esa “milliy raks”, “Folklor”, “Grafika rang – tasviriy ”, “Keramika-skulptura” ”Qo’g’irchoq” teatri kabi to’garaklar faoliyat yuritmoqda.

Tarbiyalanuvchilarni davlat ramzlari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida xaftaning har dushanba kunlari davlat madhiyasi bilan boshlanadi va xafta davomida qilingan ishlar sarxisob qilinadi. Shuningdek, “Mehribonlik uyi”da tarbiyaviy jarayon tizimini tashkil etish barobarida xaftaning seshanba kuni – “axloqiy tarbiya kuni”, chorshanba- “atrof muhit bilan tanishish kuni” payshanba – “ommaviy kitobxonlik kuni”, juma- “ommaviy tarbiyaviy tadbirlar va sport musobaqalarini o’tkazish kuni” shanba – “ozodalik kuni”, yakshanba – “muassasani mustaqil boshqarish kuni” deb belgilab quyilgan.

Har oyning oxirgi shanba kuni tarbiyachi va tugarak rahbarlarining oylik xisobot tarbiyaviy soatlari, mashg’ulotlari va kurgazmalarini tashkil etish kuni deb belgilangan.

Oyida ikki marotaba “Mehribonlik uyi” buyicha o’tkaziladigan ommaviy – tarbiyaviy tadbirlar alohida tasdiqlangan rejaviy jadval asosida tarbiyachi va murabbiylar tomonidan tashkil etiladi.

Tarbiyalanuvchilarni egallashi lozim bulgan bilim, malaka kunikmalarini ta’minlashda, iste’dodlarini rivojlantirishda

2. “Ixtidor markazi” tarkibida tashkil etilgan repititorlar xizmati asosiy

fanlar kesimida tashkil etilib jumladan, informatika, matematika, fizika, ximiya ,tarix , ona tili adabiyoti, ingliz tili, rus tili fanlaridan universitet va akademik litsey va o'qituvchilari va salohiyatli murabbiylar taklif etilgan.

3."Kasb –hunarga yo'naltirish markazi" tarkibida esa "Tikuv- bichuv", "Kashtachilik", "Duradgorlik", "Pazandachilik", "Aviamodeliz" gul kuchatlari yetishtirish to'garaklari tegishli asbob-uskunalar bilan jihozlangan ustaxonalar yordamida yuklatilgan vazifani ado etib kelmoqda.

4.«Sog'lomlashtirish markazi» yordamida bolalar salomatligini mustaxkamlash,ularni sog'lomlashtirib borish masalalarida qo'shimcha imkoniyatlarni beribgina qolmay, balki bola jismonan va ma'nan sog'lom, sport turlari bilan shugullanishi, bo'sh vaktini mazmunli o'tkazishi uchun tegishli seksiya va to'garaklar va bolalar ixtiyoridagi (valeybol, dzyudo, futbol, tennis, suzish , badiiy gimnastika, shaxmat-shashka) turli trinajyor maydonlari yaqindan ko'mak ko'rsatmokda. Shuningdek, shahardagi sport komplekslar bolalar ixtiyorida.

Ushbu maskanda tashkil etilgan shart-sharoit, olib borilayotgan ta'lim – tarbiya ishlarining barchasi yagona bir maqsadga yo'naltirilgan u ham bo'lsa bola "Mehribonlik uyi"ni tark etib mustakil xayotga qadam qo'yganida nafakat yaxshi tayanch ma'lumot bilan, balki anik xayotiy yunalish bilan, layokat, bilim iktidorini xayotga tadbiq qilish imkoniyatini olgan holda chiqarishga karatilgandir.Xulosa qilib aytganda, "Mexribonlik uyi" tarbiyalanuvchilariga beriladigan qo'shimcha ta'lim-tarbiya ishlari 4 ta markaz orkali tashkil etilishi, ularning tarkibidagi to'garaklar, repititorlik xizmat, sport seksiyalari mashgulotlari zamonaviy interfaol usullar yordamida amalga oshirilishi, xar bir bolaning yoshi, xususiyatlari, qiziqishlari, salomatligi inobatga olinishi tarbiyaning insonparvarlik ruhida olib borilishiga ko'mak beradi.

Ta'lim-tarbiyada pedagogik yondashuv tamoyilidan kelib chiqib,juda ko'p maqsadlarni aniqlaydi. 20 ( 91 .54)

---

20. Ziyomuhammadov Bo'ri "Pedagogik mahorat asoslari".T:"TIB-KITOB" 2009.183 bet.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak,bugungi kunda Termiz shahridagi 12-sonli Mehribonlik uyi belgilangan qarorlar va dasturlar asosida ish olib borib,tarbiyalanuvchilarni milliy g’urur ruhida tarbiyalash va har tomonlama kamol topishida faoliyat yuritmoqdalar.Shuningdek, olib borgan tajriba-sinov ishlarimizda anketa so’rovnomalari katta ahamiyatga ega bo’ldi.Ushbu anketa so’rovnomalarini namuna sifatida keltiramiz.

Termiz shahar 12-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun anketa so’rovnomalar

Familiyangiz …………………………………………………………

Ismingiz ……………………………………………………………...

Otangizning ismi ……………………………………………………….

Yoshingiz, sinfingiz………………………………………………………..

Shaxsiy fikrlaringizni quyidagi savollar asosida ifodalang

**Oila, ota-ona, aka-uka va qarindoshlarga munosabatingiz**

1. Oila a’zolaringizni eslay olasizmi?

2. O’z oilangizni yaxshi ko’rasizmi?

3. Ota-onangizni sog’inasizmi? Yoki ularning o’rni bilinmaydimi?

4. Aka-uka,opa-singillaringizga mehringiz bormi? Ular bilan bir oilada yashashni orzu qilasizmi?

5.Siz hozir yashayotgan Mehribonlik uyi bilan uyingiz o’rtasida farq bor deb o’ylaysizmi?Agar farq bo’lsa nimada deb o’ylaysiz?

**Odob doiralariga munosabati:**

6.O’zingizga qanday baho bera olasiz? (Irodali, sabrli, tez achchiq, bo’sh, yolg’onchi,odobli va hakoza?

7.Siz har bir narsani salbiy fikrlaysizmi? Yoki ijobiy?

8.Siz har doim o’zingizni bir xil tutasizmi?Yoki vaziyatga qarab o’zgarasizmi?

9.Siz o’zingizga va odamlarga ishonasizmi?

10.Odob-axloq munosabatlarini egallash nimadan boshlanadi deb o’ylaysiz?

**Davlat tomonidan ko’rsatilayotgan g’amxo’rliklarga sizning munosabatingiz.**

11.Tug’ilib o’sayotgan vatan O’zbekiston haqida qanday fikrdasiz?

12.O’zingizni shu vatanni a’zosi deb o’ylaysimi?

13.Vatanimizning har bir narsasini qanday saqlashimiz lozim?

14.Ona Vatan deganda nimani tushunasiz?

**Sizning vatan oldida qanday burchlaringiz bor**

15. Mehnatga qanday munosabatdasiz?

16.Mehnatsiz yaxshi yashash mumkinmi?

17.Mehnat qilish sizga yoqadimi?

18.O’z ixtriyoringiz bilan mehnat qilasizmi? Yoki majburiy mehnat qilasizmi?

19.Sizga foydasi bo’lmagan mehnatni bajarasizmi? Yoki yo’q?

20.O’zingizning shaxsingizga qanday munosabatda bo’lasiz?

21.Ertalab kuningizni qanday boshlaysiz?

22.Kun davomida nimalarga e’tibor berasiz?

23.O’zingizga –o’zingiz baho bera olasizmi?

24.Kelajagingizni qanday tasavvur qilasiz?

25.Nimanidir orzu qilib,unga erishish uchun intilib yashaysizmi?

**O’qib bilim olishga nisbatan qanday munosabatdasiz?**

26.O’qib bilim olishga qiziqasizmi?

27.Izlanuvchanlik bilan bilim olish va ijodkor bo’lib, nimalardir yaratishingiz kerakmi? Yoki maktabga kelib shunchaki o’qib ketishingiz kerakmi?

28.To’garaklarga qatnashasizmi? badiiy kitoblar o’qiysizmi?

29.She’rlarni qay darajada yod olgansiz?

30.Kasb-hunar egallashga harakat qilyapsizmi? Kasb tanlash uchun bilimning ahamiyati bormi?

**Boy ma’naviy meroslarimizga nisbatan munosabatingiz?**

31.Vatataningiz,tilingiz,millatingiz bilan faxrlanasizmi?

32.Ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan boy ma'naviy madaniy merosimizga qanday qaraysiz?

33.O'zbek xalqining urf-odatlarini,an'analarini o'rganib borasizmi?

34.Ajdodlarimiz merosini o'rganib,ulardan qanday xulosa chiqarasiz?

35.Tashabbuskor bo'lishni istaysizmi? Tashabbuskorlikni nimalarda namayon etishingiz mumkin?

**Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?**

36.Qaysi kasb egasi bo'lmoqchisiz?

37.Orzu qilgan kasbingizga erishish uchun nimalar qilishingiz kerak?

38.Siz o'ylagan kasbingizga erishishda bilimning ahamiyati bormi?

39.Kasb egallash bilan birga hunar egallashni muhim deb o'ylaysizmi?

40.Kimga o'xshashga havas qilib shu kasbni tanladingiz?

**Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shallantirish uchun olingan dastlabki so'rovnomalar va ko'rsatgichlar**

**5 -jadval**

| № | Darajalar Mezonlar | O'quvchilar soni 85 nafar | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Tajriba sinfi 45 | | Nazorat sinfi 40 | |
| | | ijobiy | salbiy | ijobiy | salbiy |
| 1. | Quroni Karim hamda Hadisu sharif orqali | 26 | 19 | 15 | 25 |
| 2. | Umumxalq bayramlarimizni nishonlash orqali | 12 | 33 | 18 | 22 |
| 3. | Xalq og'zaki ijodi orqali | 22 | 23 | 5 | 35 |
| 4. | Milliy ruknda tayyorlangan kino va teatrlar,matbuot va ommaviy axborot vasitalari | 14 | 31 | 7 | 33 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | orqali | | | | |
| 5. | Milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida | 20 | 25 | 10 | 30 |
| 6. | Davlat ramzlari tasnifida | 10 | 35 | 4 | 36 |
| 7. | Ajdodlar tarixi va merosini o’rganish orqali | 18 | 27 | 8 | 32 |
| 8. | Milliy sport o’yinlari orqali | 7 | 38 | 3 | 37 |

Birinchi galdagi natijalardan ma’lum bo’ldiki, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalashga ahloqiy me’yorlar, tartib qoidalar, fanlar, tadbirlarning mohiyatini to’laqonli tushuntirish qobiliyatiga ega emasliklari sababli berilgan savollarga to’liq javob bera oladilar. Javob berishga harakat qilgan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalash ong va faoliyat mohiyatini to’g’ri talqin etish imkoniyatiga ega emaslar, shu bois ular milliy g’ururni tarbiyalashga qaratilgan faoliyatini tashkil eta olmaydilar. Mazkur holatni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga bo’lgan intilish natijasida shu narsa ma’lum bo’ldiki, o’quvchilarning deyarli barchasi yuqorida qayd etilgan milliy g’ururni tarbiyalashga bilimlar va ular mazmunini o’zida namoyon etuvchi manbalar haqida to’liq ma’lumotga ega emaslar.

Tajriba-sinov so’nggida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalashga oid dunyoqarashlari yana bir bor aniqlandi va oldingi holatidan tubdan farqlanuvchi ko’rinish sodir bo’ldi. Mazkur holatni quyidagi jadvaldan ko’rish mumkin.

**Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashning keyingi holati**

**6 -jadval**

| № | Darajalar Mezonlar | O'quvchilar soni 85 nafar | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Tajriba sinfi 45 | | Nazorat sinfi 40 | |
| | | ijobiy | salbiy | ijobiy | salbiy |
| 1. | Quroni Karim hamda Hadisu sharif orqali | 30 | 15 | 35 | 5 |
| 2. | Umumxalq bayramlarimizni nishonlash orqali | 26 | 19 | 34 | 6 |
| 3. | Xalq og'zaki ijodi orqali | 29 | 16 | 37 | 3 |
| 4. | Milliy ruknda tayyorlangan kino va teatrlar,matbuot va ommaviy axborot vasitalari orqali | 24 | 21 | 26 | 4 |
| 5. | Milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida | 28 | 17 | 36 | 4 |
| 6. | Davlat ramzlari tasnifida | 27 | 18 | 38 | 2 |
| 7. | Ajdodlar tarixi va merosini o'rganish orqali | 26 | 19 | 28 | 12 |
| 8. | Milliy sport o'yinlari orqali | 29 | 16 | 37 | 14 |

# I Bobga xulosa

Bugungi kunda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoyalash,ularga g'amxo'rlik qilish hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.Boquvchisidan mahrum bo'lgan yetimlarga g'amxo'rlik qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida maxsus Qonun bilan kafolatlanib qo'yilgan. Shuningdek,"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham boquvchisidan ayrilgan bolalarni himoya qilishga alohida e'tibor berilgan.Shunday ekan bugungi kunda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoya qilish hamda tarbiyalanuvchilarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalab,ularda milliy g'ururni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.Mustaqillik yillarida Mehribonlik uylariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.Mazkur sohani Davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Aholini ijtimoiy himoyalash davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarida ham alohida urg'u berilgan.

Tadqiqotimizning birinchi bobida ushbu mavzuni davlat ahamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biri ekanligi ko'rsatib berilgan.Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ushbu dolzarb mavzuni pedagogik xususiyatlarini quyidagicha ochib berishga erishildi.

Ishning I bobida mavzu nazariy asoslandi.

Ya'ni Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga g'amxo'rlik Davlat e'tiboridagi masalalardan biri ekanligi asoslandi.

Shuningdek, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari va mavjud shart-sharoitlar o'rganib asoslandi.Tarbiyalanuvchilardan anketa so'rovnomalar olindi.Jumladan,tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirib takomillashtirish uchun shart bo'lgan mezonlar ishlab chiqildi.Ushbu mezonlar

tarbiyalanuvchilarda milly g'ururni tarbiyalashda asosiy mezon bo'lishi va qo'llanishi tavsiya etildi.Ya'ni quyidagicha:

Quroni Karim hamda Hadisu sharif orqali,umumxalq bayramlarimizni nishonlash orqali,milliy qo'shiq va raqslarimizga tayangan holda,xalq og'zaki ijodi orqali,konstitutsiya va qonunlarimiz orqali,milliy ruknda tayyorlangan kino va teatrlar,matbuot va ommaviy axborot vositalari orqali,milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida,davlat ramzlari tasnifida,adabiyot va san'at asosida,ertak,maqol,hikmatlar orqali,ajdodlar tarixi va merosini o'rganish orqali,milliy sport o'yinlari orqali.Ana shunday pedagogik xususiyatlari asoslanib tavsiya etildi.

## II. BOB. MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G'URUR HISSINI TARBIYALASHNING SHAKL VA USULLARI

### 1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashda o'quv fanlarining o'rni

O'zbekiston Respublikasi rivojlangan demokratik davlatlar darajasida ildam qadamlar bilan borar ekan,davlatimizni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarilishida ta'lim – tarbiyaning ahamiyati kattadir. Shunday ekan bunda o'qituvchining faoliyati muhim sanaladi.Ta'lim tarbiya ikki tomonlama harakat bo'lib hisoblanadi. Ya'ni o'qituvchi o'quvchi o'rtasida, Mehribonlik uylarida esa o'qituvchi tarbiyalanuvchi hamda tarbiyachi-tarbiyalanuvchi o'rtasidagi faoliyatning to'g'ri tashkil etilishi muhim sanaladi. Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar tarbiyalanuvchilarga nisbatan shirinso'z, muloyim, o'z o'rnida talabchan bo'lishlari lozim. Mehribonlik uylarida milliy g'ururni tarbiyalashda o'quv fanlarining o'rni juda kattadir. Chunki har bir darsni to'g'ri tashkil etilishi tarbiyalanuvchi hayotida katta o'rin tutadi. Muhimi darslar bugungi kun talabi asosida tashkil etilishi kerak. Shundagina tarbiyalanuvchi o'quv fanlarini qiziqarli tashkil etilganidan faqat fan,ilm olish, ajdodlarimizning qoldirgan boy meroslarini o'rganishga kirishib ketadi va unda milliy g'urur shakllana boradi.

Mehribonlik uylarida odobnoma, ona tili, o’qish, matematika, tabiatshunoslik fanlarining tashkil etilishida milliy g’urur tarbiyasi ko’proq singdirilib boriladi.Pedagog o’quv tarbiya jarayonida o’z metodlari ustida mohirona ishlab darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi shart. Olib borgan tadqiqotlarimiz davomida ana shunday darslarni tashkil qildik. Shu asosida tarbiyalanuvchi hayotida ularni milliy g’urur ruhida tarbiyalshda ahamiyati nihoyatda katta ekanini isbotladik. Shuning uchun ham tadqiqot davomida olib borilgan Odobnoma darsi jarayonidan namuna keltirdik. **( 3-*ilovada)***

Qolaversa mehnat ta’limi darslarida tarbiyalanuvchilarni mehnatsevarlikka, kasb-hunar sirlarini egallashga o’rgatib boriladi. Boshlang’ich sinf tasviriy san’at darslarida esa Vatanimizni madh etuvchi rasmlar tasvirlanib ular asosida vatanga muhabbat ruhi shakllantirib boriladi. Tarbiyalanuvchilar chizgan rasmlari asosida fikr yuritadilar. Boshlang’ich sinflarda musiqa darslarida “Vatan”, “Ona yurt”mavzularida qo’shiqlar yod oladilar. Qo’shiqlarda aks ettirilgan vatan madhini o’rganadilar. Demak, fanlar asosida Mehribonlik uylarida milliy g’urur tarbiyasi shakllantiriladi. Buning uchun darslar pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilinishi shart va zarur.

Termiz shahridagi 12-sonli Mehribonlik uyining 3-“A” sinfi bilan olib borilgan Odobnoma darsidan namuna.

**Dars :**Odobnoma

**Sana :** 2012-yil dekabr

**3-“A”sinf**

**Mavzu:**Mehnat inson hayotini bezaydi

**Darsning jihozi**: 3-sinf Odobnoma kitobi, rangli rasmlar, tarqatma materiallar, texnik vositalar, rag’bat kartochkalar,kompyuter axborot vositasi.

**Darsning turi:** Aralash

**Darsning metodi :**Og’zaki

Darsning maqsadi :

**A. Ta’limiy:** Mavzu haqida ma’lumot berish.

**B. Tarbiyaviy:** Mavzu asosida mehnat qilish qobiliyatini shakllantirish.

**D. Rivojlantiruvchi:** Mavzu asosida olgan bilimlarini shaxsiy hayotlarida qo'llay olishni o'rgatish.Bilim, ko'nikma,malakalarni rivojlantirsh.

**Darsning texnologik xaritasi** **7-jadval**

| T/r | Darsning borishi | Vaqt taqsimoti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism<br>Fasl bayrami asosida | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni so'rash<br>Savol-javob asosida | 12 daqiqa |
| 3 | O'tgan mavzuni mustahkamlash<br>Boshqotirma asosida | 5 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzu bayoni<br>Muammo texnologiyasi,klaster usuli va roliklar asosida | 18 daqiqa |
| 5 | Yangi mavzuni mustahkamlash<br>Rasmli rebuslar asosida | 5 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa<br>Tushintirish asosida | 2 daqiqa |

**Darsning borishi:**

**1.Tashkiliy qism: 3 daqiqa**

**Fasldagi bayramlar asosida tashkiliy qism olib boriladi.**

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar mana siz bilan darsni ham boshlab oldik. Demak, bugun barchangiz darsga tayyorsiz. Endi diqqatingizni o'tgan suhbatimizga qaratishingizni so'rayman.

**2.O’tgan mavzuni so’rash: 12 daqiqa**

**Savol-javob asosida**

O’qituvchi: Siz bilan bugun ikkita guruh asosida darsni olib boramiz, buning uchun ikkita guruhga bo’linib olishimiz kerak. Mana bu kartochkalarni tortasiz, kimga toq son tushsa o’ng tomonga, kimga juft son tushsa chap tomonga o’tirib oladi. Shu tariqa ikki guruhga bo’linamiz,marhamat. (Shu tariqa sinf ikki guruhga ajraladi.)

O’qituvchi: O’tilgan suhbatimiz haqida fikr yuritamiz. Demak, siz bilan Jonli haykal mavzusi yuzasidan suhbat olib borgan edik. Keling endi bu haqida siz bilan fikrlashsak. Mavzuni ikkala guruh ham navbat bilan so’zlab berishga harakat qiling. (Guruhlar mavzuni so’zlab beradilar.)

Endi esa siz bilan mavzuni savol-javob qismiga o’tamiz. Bunda birinchi guruh ikkinchi guruhga, ikkinchi guruh esa birinchi guruhga savol beradilar. Guruhlar bergan javob baholanib boradi.

O’qituvchi: Barakalla aziz o’quvchilar ikkala guruh ham savollarga juda yaxshi javob berdingiz. Ofarin.

**3. O’tgan mavzuni mustahkamlash: 5 daqiqa**

**Boshqotirma asosida**

O’qituvchi:O’tilgan mavzuni boshqotirma asosida mustahkamlaymiz.

O’qituvchi: Demak siz bilan o’tilgan mavzumiz haqida suhbat olib bordik. Endi esa mavzumizni mustahkamlash maqsadida qisqacha mening savollarimga diqqat qiling.

Savol:

1. Hasan dastlab Murod keltirgan sovg’aga qanday munosabatda bo’ldi?

2. Kutilmagan sovg’a berish yoki olish insonga qanday ta’sir ko’rsatadi? Siz bunga tayyormisiz?(O’quvchilar javobi eshitiladi.)

**4. Yangi mavzu bayoni 18 daqiqa**

**Muammo texnologiyasi,roliklar asosida**

**Mavzu:**Mehnat inson hayotini bezaydi

O’qituvchi:Mehnat haqidagi maqollarni o’qiymiz.

Maqollarni o’qing va mazmuniga diqqat qiling.

(O’quvchilar maqollarni mazmunini aytib beradilar.)

O’qituvchi:Mehnat inson hayotini bezaydi. Biz kundalik hayotda ishlatayotgan har bir narsa mehnat tufayli yuzaga keladi. Insonning qo’li gul. U istasa toshda gul undirishi, oddiy loydan bejirim buyumlar yasashi mumkin.

Dangasalik yomon–illat. Dangasa inson hech qachon maqsadga erisha olmaydi.

Endi esa ushbu hikoyaga e’tibor qarating. Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino bolalik chog’ida matematikani yoqtirmas ekan. Chunki u bu fanni qiyin deb hisoblar ekan.

Bir kuni u qir-adirda ketayotib quduqqa duch kelibdi. Chanqagani uchun quduqqa chelak tashlabdi. Suvni tortib olar ekan quduq og’zidagi marmar gardishga e’tibor beribdi. Gardish chelakka bog’langan arqonni sirg’alishidan yeyilib ketgan ekan. Ibn Sino hayolga tolibdi. Arqon yumshoq bo’lsa qanday qilib mustahkam marmar toshni kesishi mumkin? Demak, Har qancha qiyin bo’lmasin biror ishni uddalash uchun g’ayrat shijoat sabr –matonat bilan tinimsiz mehnat qilish kerak ekan-da! Men matematikani tushunmayman agar harakat qilsam,albatta o’rganib olaman. Shunday qilib, alloma matematikani to’la –to’kis o’zlashtiribdi. Ibn Sino har gal qiyin ishga duch kelgan paytda marmarni kesgan arqonni esga olar ekan.

Savollar:

1. Sizningcha Ibn Sino dunyoga mashxur olim bo’lishining siri nimada?
2. Qiyin ishni bu mening qo’limdan kelmaydi,deb tashlab qo’yish to’g’rimi?

(O’quvchilarning savollarga javobi eshitiladi.)

O’qituvchi: Aziz o’quvchilar endi esa siz bilan Mehnat qo’shig’i she’rini o’qiymiz.

Zafar Diyor she’ri

## Mehnat qo’shig’i

Mehnat –sharaf shon ekan,
Mehnat-hayot va rohat.

Yashamoqni istagan,

Ko’rsatgusi mahorat.

Endi esa mavzu asosida video rolikni tomosha qilamiz. Rolik tomosha qilib shu asosida fikr yuritamiz.

**5. Yangi mavzuni mustahkamlash 5daqiqa**

O’qituvchi: Aziz o’quvchilar siz bilan bugungi darsimizda mehnat haqida o’rganib oldik. Men o’ylaymanki siz doimo bugungi darsimizdan olgan bilimlaringiz asosida hayotingizda mehnat qilib,kasb hunar egasi bo’lib olasiz.Bunda albatta sizga mehnat faoliyati yordam beradi. Chunki siz o’z mehnatingiz bilan Mustaqil O’zbekistonimizni rivojlanishiga ham katta yordam berasiz.Chunki siz vatanimizning kelajak quruvchilarisizlar aziz bolalar.

**6. Uyga vazifa 2daqiqa**

**Tushintirish asosida**

O’qituvchi:Uyga beriladigan topshiriqqa diqqat qiling va to’g’ri bajarishga harakat qiling. Uyga beriladigan topshiriqlar:

Mehnat inson hayotini bezaydi mavzusini o’qib fikrlaysiz,shu asosida o’z fikrlaringizni yozasiz.Shuningdek, siz o’z mehnatingiz haqida yozib,mehnat haqidagi maqollarni hamda Mehnat qo’shig’ini yod olasiz.

Xuddi ana shu odobnoma darsi Termiz shahar 12-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari 3-sinflari bilan olib borildi hamda ilg’or tajriba sifatida “Boshlang’ich sinf” jurnalida bayon etildi.

Mehribonlik uylarida o’quv fanlarinig o’rni katta deb ta’kidladik. Chunki fanlar asosida milliy g’urur tarbiyasi singdirilib boriladi. Masalan, odobnoma darslarida O’zbeklarga xos bo’lgan salomlashish qoidasi, vatanparvarlik, mehnasevarlik, insoniy sifatlar, ajdodlarimiz merosi, vatanga, ota-onaga hurmat, do’st bo’lish munosabatlari, milliy urf-odatlarimiz va an’analarimiz kabi hislatlar o’rgatilib boradi. Shuningdek, onatili darslarida esa davlat tilimiz bo’lgan o’zbek tilining muhim kitobiy, ilmiy masalalari keng ma’noda o’rgatilib boriladi. Bunda tarbiyalanuvchilar sof o’zbek adabiy tilida so’zlashish qoidalarini o’rganib oladilar. Shuningdek, ilmiy salohiyati kengayib,o’zbek tilida to’g’ri yoza olish

hamda nutq madaniyati shakllanib boradi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida esa adabiyotimizning noyob durdonalarini,maqol va tez aytishlarni hadis va hikmatlardan namunalarni,ertak va hikoyalarni, xullas milliy g'ururni shakllantira oladigan ma'lumotlarni o'rganib boradilar. Boshlang'ich sinf matematika darslarida esa matematika fanining asoschisi Al.Xorazmiy qoldirgan bilimlardan bahramand bo'ladilar.

**2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashda pedagogik mahoratning ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida "Tegishli ma'lumoti,kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega". 21 (26 ,21)

Ushbu qonundan kelib chiqib,shuni anglash mumkinki Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi va pedagog xodimlar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan,oliy ma'lumotli pedagoglar sanaladi.

Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizomning 49-bandiga asosan "Pedagog xodimlar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda kontrakt asosida qabul qilinadi".Shunday ekan ularning oldida mas'uliyatli vazifalar juda kattadir. Shuni alohida aytish kerakki Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar tarbiyalanuvchilarga alohida mehribon, shirinso'z, hushmuomalali, muloyim tarbiyalanuvchilarni ko'ngliga yo'l topa oladigan bo'lmog'i shart va zarur.Ular orasidagi farq shundaki oilada bola biror narsadan xafa bo'lsa ota-onasini sirdosh hisoblab, ularga sirlarini ayta oladi.

Pedagogik faoliyatida jazo turlaridan o'rinsiz foydalanmasligi, bola shaxsiga tegmasligi shart.

Agar pedagoglardan birortasi tarbiyalanuvchining shaxsiga tegadigan yoki uning og'ir o'tmishini yuziga solib, bolaga yomon ta'sir ko'rsatsa tarbiyalanuvchi mutlaqo yomon tomonga o'zgaradi.

---

21. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.T: "Sharq"nashriyoti 1998.63 bet.

U birgina o’sha o’qituvchidan emas balki butun Mehribonlik uyida faoliyat ko’rsatayotgan har bir kishidan nafratlanadi. U hatto do’stlariga ham qo’shilmay,hammadan nafratlana boshlaydi.

Shuning uchun ham Mehribonlik uylarida faoliyat ko’rsatayotgan pedagoglar oldidagi mas’uliyat nihoyatda murakkab sanaladi. Ayni paytda pedagoglar o’z ustida har kuni har doim ish olib borishi hamda pedagogik texnologiyalarni darslarda to’g’ri qo’llay olishi kerak.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki,Mehribonlik uylarida pedagogning faoliyati yana bir narsada aniq namayon bo’ladi. Masalan o’qituvchi o’z tarbiyalanuvchisi bilan samimiy muomalada bo’lib,tarbiyalanuvchining yaqin do’stiga aylansa unga har bir qadamda maslahatchi bo’la olsagina tarbiyalanuvchi qalbiga kirib bora oladi, tarbiyalanuvchi qalbida milliy g’ururni shakllantira oladi.

O’qituvchining o’z harakati va munosabatini anglash darajasi o’zining jamiyat va kasbiy faoliyatdagi o’rni ,o’zini o’quvchi o’rnida qo’ya olishi,o’quvchi bilan hamkorlikka tayyorligi ,tarbiyaviy faoliyati doirasida munosabatlarini oydinlashtirishga ko’maklashadi. 22 ( 83 .11)

Mehribonlik uylarida faoliyat ko’rsatayotgan pedagoglar ajdodlarimizning noyab meroslaridan ham mazmunli foydalana olishlari muhim ahamiyatga egadir. Bunda tarbiyalanuvchining insoniy sifatlari shakllanib, o’rganganlaridan to’g’ri xulosa chiqarishga odatlana boshlaydi.

Shuning uchun ham tarbiyachi pedagoglar bugungi kun pedagogic texnologiyalari asosida faoliyat ko’rsatmog’i lozim.

Tarbiyalanuvchilarning qiziqishiga qarab,ularni turli mashg’ulotlarga va tadbirlarga hamda suhbatlarga jalb etish muhimdir.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari bilan Ota-onasi bag’rida voyaga yetayotgan bolalarning juda katta farqi bor.Masalan ularningta’lim-tarbiya olish jarayonida muomala madaniyatida aniq farq seziladi.Nima uchun shunday? degan savol tug’ilishi tabiiydir.

---

22. “Xalq ta’limi” T: 3-son,2011.144 bet.

Ana shu farqlarni sezgan tarbiyachi-pedagoglar barcha imkoniyatlardan o'rinli foydalana olishlaritalab qilinadi.

Milliy g'ururimizni bola ongida shakllantirar ekanmiz, uning natijasida vatanga muhabbat hissi orta boradi.

Ana shu o'rinda tarbiyachi- pedagoglar bilan ham suhbatlashdik. Ularni ham anketa so'rovnomalarga jalb etdik.

Xurmatli ______________________________________________________

Bizning tajriba-sinov ishlarimizda uz javoblaringiz bilan faol ishtirokingiz uchun sizga minnatdorchilik bildiramiz.

**Tarbiyachi –pedagoglar uchun so'rovnomalar**

Termiz shahar 12-sonli Mehribonlik uyida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglar uchun anketa so'rovnomalar

Familiyangiz ……………………………………………………

Ismingiz ……………………………………………………...

Otangizning ismi ………………………………………………….

Kasbingiz ……………………………………………………..

Shaxsiy fikrlaringizni quyidagi savollar asosida ifodalang

Savollar

1. Milly g'ururni qanday tushunasiz?
2. Milliy g'ururni tarbiyalanuvchilarda qanday shakllantirish mumkin?
3. Milliy g'urur natijasida vatanga muhabbat ruhi qanday shakllantirib boriladi?
4. Ajdodlar merosi va qadriyatlarimiz orqali milliy g'ururni qanday tarbiyalash mumkin?
5. Vatan haqida nechta she'r bilasiz?
6. Vatan haqida qo'shiq ayta olasizmi?
7. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodidan qanday foydalanish mumkin?
8. Ota-onaning farzand oldida,farzandning ota-ona oldida burchlarini bilasizmi?

9. Farzandlarini Mehribonlik uyiga topshirayotgan ota-onalarga qanday qaraysiz?

10. Bugungi kunda Mehribonlik uylaridagi sharoitlarga fikringiz qanday? Sizning fikringizcha qanday qilsa bo'ladi?

Xurmatli ______________________________________________________

Bizning tajriba-sinov ishlarimizda uz javoblaringiz bilan faol ishtirokingiz uchun sizga minnatdorchilik bildiramiz.

Termiz shahar 12-sonli Mehribonlik uyida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar uchun anketa so'rovnomalar

Familiyangiz ……………………………………………………

Ismingiz ……………………………………………………………..

Otangizning ismi …………………………………………………….

Kasbingiz ……………………………………………………………..

1. Shaxsiy fikrlaringizni quyidagi jadval asosida ifodalang.

Javoblardan birini tanlang.

**8-jadval**

| T/r | **Tarbiyalanuvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan xususiyatlar** | **Pedagoglar javoblari** | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **Yo'q**<br><br>**2 ball** | **Juda murakkab**<br><br>**3 ball** | **Harakat qilsa bo'ladi 4 ball** | **Ha**<br><br>**5 ball** |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1 | Tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirishda pedagogik xususiyatlarni bilasizmi? | | | | |
| 2 | Milliy g'ururni tarbiyalashda tarbiyalanuvchilar ruhiyatiga kirisha olasizmi? | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3 | Pedagogik mahoratingizni oshira olasizmi? | | | | |
| 4 | Milliy g'ururni tarbiyalashda qulay usullarni topa olasizmi? | | | | |
| 5 | Tarbiyalanuvchilarga milliy g'urur zarurligini singdira olasizmi? | | | | |
| 6 | Tarbiyalanuvchilar milliy g'ururni to'liq egallay oladimi? | | | | |
| 7 | Milliy g'urur shakllanishida vatanga muhabbat ruhini shakllantira olasizmi? | | | | |
| 8 | Milliy g'ururni tarbiyalashda bugungi kun talabi asosida faoliyat ko'rsata olasizmi? | | | | |
| 9 | Milliy g'ururni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyani birga olib bora olasizmi? | | | | |
| 10 | Milliy g'ururni tarbiyalashda kunlik rejalaringizni to'g'ri tashkil qila olasizmi? | | | | |

Teleko'rsatuvlar, matbuot yangiliklarini o'rni ham kattadir. Masalan, vatan, ajdodlarimiz merosini aks ettiruvchi ko'rsatuvlar, milliyligimizni o'zida namayon qilgan ko'rsatuvlar orqali milliy g'urur tarbiyasini takomillashtirib borish mumkin. Olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki har bir pedagog tarbiyalanuvchilar ongida milliy g'urur tarbiyasini shakllantirishda quyidagilarni amalga oshirish shart.

Ona vatanga muhabbat ruhini singdirish;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qonunlari haqida o'rgatib, sodiqlikka chorlash;

Barkamol va sog’lom bo’lish uchun ularni harakatga intiltirish;

Milliy an’ana va urf-odatlarimizni o’rganishga va ularga hurmat ko’zi bilan qarashni o’rgatish.

Ona vataniga, o’z tili,diniga sodiqlikka o’rgatish.

O’z yurtini tarixini bilish, meroslarimizni asrab-avaylab avlodlarga yetkazishni o’rgatish.

Ona vatanimiz xalqiga,tili va madaniyatiga,uning o’tmishiyu,kelajagiga hurmat ko’zi bilan qarashga o’rgatish.

Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizomning 51-bandiga asosan “Mehribonlik uyida tarbiya-ta’lim jarayonini psixologik ta’minlashni psixolog amalga oshiradi”.

Psixologning faoliyati tarbiya–ta’lim jarayonini takomillashtirishda katta ahamiyatga egadir. Tarbiyalanuvchilarni o’zgarishini yoki rivojlanishini, xarakter xususiyatini kuzatib boradi. Ularda paydo bo’layotgan salbiy odatlarni ham o’zining psixologik ta’sirida bartaraf eta oladi. Shuning uchun ham pedagog psixolog bilan hamkorlikda ish olib boradi va o’z o’rnida samaraga erishadi.

**3.Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’urur hissini tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlarning o’rni**

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g’ururni tarbiyalash modelini quyidagi jadvalda tasvirlaymiz.

**9-jadval**




Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizomning beshinchi qismi 40-bandiga asosan “Tarbiyalanuvchilarning individual, ta’lim- rivojlantiruvchi ehtiyojlarini qondirish ularning iste’dodi va qobiliyatlarini rivojlantirish,shuningdek keyinchalik kasbga

yo’naltirish uchun ularning qiziqishlari va moyilliklarini aniqlash,bo’sh vaqtlarini va dam olishini tashkil qilish maqsadida Mehribonlik uyida muasssasaning mablag’lari,ham boshqa mablag’lar hisobiga turli klublar, seksiyalar, to’garaklar, studiyalar tashkil etiladi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari madaniy-estetik, tabiiy-ilmiy,texnik,sport va boshqa yo’nalishlardagi maktabdan tashqari ta’lim muassasalari ishlarida qatnashishlari mumkin”.

Ushbu nizomda ko’rsatilganidek Mehribonlik uylarida tarbiyaviy ishlar to’g’ri tashkil etilishi yaxshi natija beradi. Jumladan tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etilishi tarbiyalanuvchida milliy g’ururni takomillashtirilishida yordab bera oladi.

Tarbiyalanuvchilar mustaqil ravishda madaniy-ommaviy, sport va mehnat faoliyatlarida va tadbirlarda muhim sanaladi.Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizomning beshinchi qismi 41-bandiga asosan “Tarbiyalanuvchilarning madaniy-ommaviy, sport va mehnat faoliyatining turli shakllarida qatnashishi tashabbuskorlik, mustaqillilik va vijdoniylik tamoyillari asosida amalga oshiriladi”.

Mehribonlik uylarida tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda tarbiyalanuvchilar o’rtasida va atrofga nisbatan do’stona muhit yaratilishi shart va zarur. Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizomning beshinchi qismi 42-bandiga asosan “ Bolaga nisbatan do’stona munosabatlar muhitini yaratish va yoshlar tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash maqsadida Mehribonlik uyida bolalar birlashmalari tashkil qilinishi mumkin”.

Mehribonlik uylarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning har tomonlama dunyoqarashlarini e’tiborga olish zarur. Masalan, aqliy, axloqiy, siyosiy,iqtisodiy, huquqiy,ekologik,diniy, estetik, badiiy jihatlarini e’tiborga olib tuziladi. Ana shu tomonlarni e’tiborga olgan holda olib borilgan tarbiyaviy tadbirlar natijasida tarbiyalanuvchilar quyidagilarni bilib oladilar. Masalan, vatanimiz tarixini, sanoatini, milliy qadriyatlarini, ajdodlardan avlodlarga o’tib kelayotgan boy merosimizni, o’zlikni anglashni, o’zini va

o'zgalarni hurmat qilishni, Ona vatanimizga hurmat ko'zi bilan qaray olishni keng ma'noda o'rgana boshlaydi. Milliy g'ururni shakllantirishda- axloqiy sifatlar, halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik, kamtarlik, faollik, to'g'riso'zlik, mas'uliyatlilik, saxiylik, poklik, mehnasevarlik, mehrlilik, jasurlik, mardlik kabi hislatlarni shakllantirilishi muhim ahamiyatga ega.Olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki milliy g'ururni tarbiyalashda tarbiyaviy ishlar va tadbirlar muhim omil hisoblanadi. Masalan, tarbiyaviy ishlar: Buyuk sarkardalarimiz hayotiga bag'ishlangan kechalarni tashkil qilish.

Milliy qadriyatlarni namayon etuvchi kechalarni tashkil etilishi:masalan Navro'z bayrami, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti, Mustaqillik kuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Davlatimiz ramzlari qabul qilingan kunni nishonlash milliy g'ururlarimizdan dalolat beradi.Milliy g'ururni shakllantirishda sport g'oliblarini namuna qilib ko'rsatish va ular bilan suhbatlar uyushtirish orqali hamda sport musobaqalarini tashkil etish asosida ham singdiriladi.

Masalan, guruh yer uchastkalariga nihollar ekib, ularni parvarish qilish yo'li orqali obodonlashtirish hamda mehnatga qiziqishlarini oshirib borish kerak. Ana shu maqsadda guruhlar o'rtasida “Obod uyimiz” deb nomlangan musobaqani o'tkazish mumkin. Bu musobaqa Mehribonlik uyi hovlisida tashkil qilinadi. Bunda har bir tarbiyalanuvchining faolligini ta'minlashda tarbiyachi va inagalarning harakati muhim ahamiyatga egadir.Tadbirni boshlashdan oldin tadbir shartlari tushuntiriladi.

Aziz bolajonlar uyimizning obodligi, ko'rkamligi vatanimizning obodligidir. Bugun siz bilan “Obod uyimiz” musobaqasini o'tkazamiz. Bunda sizning chaqqonligingizni, mehnat qobiliyatingizni, tabiatga munosabatingizni hamda diqqat e'tiboringizni bilib olamiz. Musobaqada ikkita guruh bellashadilar. Musobaqa shartlari quyidagicha:

1. Xona gullarini ekish jarayonini ko'rsatib berish.
2. Mehribonlik uyi hovlisida belgilangan joyda yerga ishlov berish sirlarini ko'rsatib berish.
3. Mehribonlik uyi hovlisida nihollarni ekish jarayonini ko'rsatish.

4. Mehribonlik uyi hovlisida urug'lardan o'sadigan o'simliklarni belgilangan yerda urugini ekish jarayonini ko'rsatib berish.

Demak, sizga shartlarimiz tushunarli bo'lgan bo'lsa bellashumizni boshlaymiz. Har bir shart bo'yicha sharoitlar mavjud bunda tarbiyalanuvchilar faoliyati baholanadi. Tarbiyalanuvchilar faoliyatini biologiya o'qituvchisi hamda Mehribonlik uyi bog'boni baholab boradi.Musobaqada har bir shart tartib bilan e'lon qilinadi va bajariladi.Tarbiyalanuvchilar bir-biridan tez va chaqqon harakat qilishadilar. Belgilangan shartlar bo'yicha o'quvchilar faoliyati quyidagicha baholanadi. **10-jadval**

Shartlar bo'yicha umumiy baholar

| T/r | Guruhlar | 1-shart | 2-shart | 3-shart | 4-shart | Umumi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1-guruh | 6 | 7 | 5 | 7 | 25 |
| 2 | 2-guruh | 7 | 8 | 8 | 6 | 29 |

Demak, bugungi musobaqada 2-guruh tarbiyalanuvchilari yuqori ball oldilar. Ammo 1-guruh ham juda yaxshi qatnashdilar. Aziz bolajonlar musobaqa boshlanishidan oldin mehribonlik uyimizning hovlisi qanday edi. Endi esa foydali mehnatimizdan keyin qanday holatga keldi. Siz bugungi bellashuv asosida juda ko'p narsani egalladingiz. Shuningdek, o'z yashab turgan uyingizni obod qilib, vatanimizning obodonlashtirishga o'zingizni katta hissangizni qo'shdingiz.

Shuni aytmoqchimizki, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida milliy g'urur hissini paydo qilishda tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri tashkil etilishi asosiy omil hisoblanadi.

- Tarixiy manbalarga boy bo'lgan qadamjolarga sayohatlar uyushtirish orqali tariximizni o'rganadilar. Shuningdek kasb –hunarga oid tadbirlar asosida o'z kasbini to'g'ri tanlay olish va vatanga xizmat qila olish hissi shakllantiriladi. Shuning uchun ham pedagoglar va tarbiyachilar tomonidan tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri tashkil etilishi milliy g'urur hissini amalga oshirishda muhim vosita hamdir. Bunda quyidagi shaxs va tashkilotlarning faoliyati ahamiyatlidir.

- Mehribonlik uyi rahbariyati.

- O’qituvchi pedagoglar.
- Davlat va nodavlat tashkilotlar.
- Otaliq tashkilortlar.
- Muassasa va korxonalar.
- Ekskursiya bilan shug’ullanuvchi tashkilotlar.
- Matbuot organlari.
- Ommaviy axborot vositalari.
- Barcha ilmiy muassasalar.

Ushbu keltirilgan nomlarning roli nimada. Biz bilamizki rag’bat ishlashga da’vat. Shunday ekan Mehribonlik uylarida olib borilgan har bir tadbir yakuni rag’batsiz qolmasligi zarur. Chunki tarbiyalanuvchi tadbirdagi ishtiroki natijasi rag’batsiz qolib ketsa keyingi safarida tarbiyaviy tadbirlarga qatnashishdan o’zini tortishi mumkin.Ana shu sababli yuqorida zikr etilgan shaxs va tashkilotlarning roli katta. Chunki ular rag’batlantirishda jonbozlik ko’rsatishadi. Shuning uchun ham Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini rag’batlantirish ularni yanada faol bo’lishga da’vat etadi.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda suhbatlarga alohida e’tibor bermoq zarur, ya’ni quyidagilarga e’tibor qaratish lozim.

Quroni Karim, Hadisi Shariflar, Mutafakkirlarimizning ijodi, xalq og’zaki ijodi, badiiy adabiyotlardan foydalaniladi.

Quroni Karimning har bir oyati surasi kishini yaxshilikka undovchi, qimmatli o’gitlar ekani, poklik, iffat, iymon, do’stlik, ota-ona qadri, yetim-yesir haqi,farzandlik burchi,insondagi yaxshi fazilatlarn namayon qilish kabi qimmatli o’gitlarga boydir. Quronda o’g’rilik,birovning haqiga hiyonat qilish, Vatanga hiyonat qilish kabi qabih ishlar qoralanadi. Ana shunday qabih ishga qo’l o’rganlarni insofga chaqiradi. Ularni qilgan yomon ishlari uchun tavba qilishga undaydi.

Hadisu Sharif xususida ham to’xtalish mumkin. Hadislardan namunalar” deb nomlangan kecha uyustirish mumkin. Unda hadis ilmidan tarbiyalanuvchilarni bahramand qilish maqsadga muvofiqdir. Hadislar orqali tarbviyalanuvchilar juda

ko’p ibratli ishlarni amalga oshiradilar. Ulardan xulosa qilishga harakat qiladilar. Bundan ko’rinib turibdiki Mehribonlik uylarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda albatta Quroni Karim hamda Hadisi Sharif haqida suhbat uyushtirishni rejalashtirish lozim.

Shuningdek,xalqimizning milliy urf-odatlarini o’zida mujassam etgan bayramlari ham mavjud, albatta ular orqali ham milliy g’urur shakllantiriladi. Masalan Navro’z umumxalq bayramini Mehribonlik uylarida nishonlanishi orqali tarbiyalanuvchilar juda ko’p milliy urf-odatlarimizni anglab oladi. Masalan milliy taomlarimizni, milliy o’yinlarimizni, milliy qo’shiq va raqslarimizni,milliy an’ana va urf-odatlarimizni Navro’z bayramini nishonlash orqali bilib oladilar. Albatta bunda tarbiyalanuvchida vataniga bo’lgan qiziqishi yanada oshadi hamda milliy g’urur hisi shakllana boradi.

Yaxshilikka undovchi kunlarimizdan Qurbon hayiti, Ramazon hayiti, Mavludning o’tkazilishi haqida ham suhbatlar olib borish tarbiyalanuvchi qalbiga yaxshiliklar olib keladi.

Yana shuni aytish joizki xalq og’zaki ijodi orqali tarbiyalanuvchilarni yaxshilikka undash mumkin. Masalan ertaklar orqali “Ertaklar yaxshilikka yetaklar” kechasini tashkil qilish mumkin.Bunda tarbiyalanuvchilar ertaklar asosida yovuzlikni ustidan yaxshilik g’alaba qozonishini o’rganib oladilar. Shuningdek,maqollar,rivoyatlar, qo’shiqlar orqali ham milliy g’urur tarbiyasi takomillashtirilib boriladi.Mehribonlik uylarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda bir necha qoidaga amal qilish maqsadga muvofiq bo’ladi. Masalan, ular quyidagilar;

- Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda milliy g’urur hissiga e’tibor berish;
- Tarbiyaviy tadbirlarni o’tkazishda tarbiyalanuvchilarni ruhiy tayyorlash;
- Tarbiyaviy tadbirlarni o’tkazishda milliy qadriyatlarimizni mavjudligi;
- Tarbiyaviy tadbirlarni o’tkazishda tanlangan mavzu tarbiyalanuvchilar yoshiga mosligi,hayotiyligi va ommaviyligi;
- Tarbiyaviy tadbirlarni o’tkazishda tarbiyalanuvchilarning qiziqishlarini e’tiborga olish;

- Tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda maqsadga qaratilganligi;

- Tarbiyaviy tadbirlarni ongli va mazmunli o'tkazishga qaratish.

